

ISBN: 978-93-42809-4-6

**BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING TAYANCH
KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH
METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Authors:

**AYGUL ARALBAYEVNA
URAZIMBETOVA**



Published by
Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

AYGUL ARALBAYEVNA URAZIMBETOVA

MONOGRAFIYA

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TAYANCH
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**



Toshkent-2025

UO‘K: 37.015.3:373.3

KBK: 74.200.21

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TAYANCH
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI**

TAKOMILLASHTIRISH [Matn]: ilmiy nashr /

A.A.Urazimbetova, Toshkent, 2025.-110 bet.

Mazkur monografiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, tayanch kompetensiyalari va aqliy rivojlanishi, dunyoqarashini komunikativ savodxonligi va o‘zini-o‘zi anglash salohiyatini shakllantirish, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga o‘rgatish, strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Monografiyada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini, ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali usullar tahlil etilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, amaliy mashg‘ulotlari va monitoring usullari o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

Monografiya mazkur muammo doirasida ilmiy-tadqiqot ishini olib borayotgan boshlang‘ich ilmiy tadqiqotchilar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

L.B.Axmedova- P.f.b.f.d, (PhD)

X.Muxammadiyeva - P. f.n. (PhD), dotsent

©A.A.Urazimbetova

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7-43
--	------

§ 1.1. Boshlang'ich ta'lim DTS talablari asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga kompetentli yondashuv.....	7-30
--	------

§ 1.2. Innovatsion yondashuv zamonaviy maktabda ta'lim jarayonini takomillashtirishning sharti sifatida.....	31-43
--	-------

1 bob bo'yicha xulosalar.....	44-45
-------------------------------	-------

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	46-85
---	-------

§ 2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli.....	46-61
---	-------

§ 2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning metodik ta'minoti.....	62-76
--	-------

§2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalari takomillashganligi dinamikasi.....	77-85
--	-------

XULOSA.....	86-88
-------------	-------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	89-110
---	--------

KIRISH

Jahonda globallashtirish va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois rivojlangan davlatlarda bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Angliyada fan va ta'lim yutuqlarini o'quv materiallari mazmuniga singdirib borish, ona tili o'qitish sifatini oshirish, ta'limning uzluksizligini va samaradorligini oshirishga oid ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida e'tibor berilgan.

Dunyoda boshlang'ich ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilari tayanch kompetensiyalarini shakllantirish didaktik ta'minotining bosqichlarini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ modelini takomillashtirish, 1-2-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish metodik ta'minotini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning metodik ta'minoti, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalari takomillashganligi dinamikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning samarali mexanizmlarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan [3]. Bu ijtimoiy jarayonlarda, kasbiy muloqot saviyasini oshirishga sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2011 yil 20 maydagi PQ-1533-son “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion ta'lim sharoitida turli qobiliyatlarini shakllantirish masalalari bo‘yicha N.G.Alovutdinova, A.Ya.Bobomurodova, T.U.Ziyadova, R.Ibragimov, N.A.Qosimova, U.A.Masharipova A.Q.Nisanbaeva, Sh.U.Nurullaeva, O.Oxunjonova, A.Teshaboev, R.Hamroev, N.A.Hamedova, M.Z.Hamdamova kabilarning ilmiy-tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [88, 98, 127, 130, 240, 153, 165, 168, 175, 209, 243, 244, 242].

Ta'lim jarayonining turli bosqichlarida o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha turli davrlarda professor A.Abduqodirov, Q.Abdullaeva, G.Boymurodova, M.E.Jumaev, Sh.Yo‘ldosheva, R.A.Mavlonova, K.Qosimova, B.E.Sabirov, N.I.Taylaqov, M.I.Toshpulatova, S.I.Rahmonqulova, S.Usmonov, X.G‘ulomova, Sh.J.Yusupova, K.A.Farfievalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [85, 83, 99, 120, 148, 78, 193, 61, 211, 186, 214, 81, 235, 215].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari B.G.Ananayev, A.N.Alekseev,

V.I.Andreev, A.B.Voronsov, B.S.Gershunskiy, V.V.Guzeev I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, T.A.Kaplunovich, B.F.Lomov, S.V.Lazarev, A.K.Markova, A.M.Matyushkin, L.A.Petrovskaya, A.V.Savenkov, V.V.Serikov, A.V.Xutorskoy, I.S.Yakimanskaya, D.B.Elkonin, L.A.Frolova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [110, 113, 129, 141, 146, 142, 152, 200, 67, 68, 236, 237, 232, 233].

Xorijiy davlatlarda N.Chomsky, J.Jarmul, F.Carton, M.Grammont, P.Léon, A.Martinet va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

I. BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1. Boshlang‘ich ta'lim DTS talablari asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga kompetentli yondashuv

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va tadkomillashtirish talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang‘ich ta'lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich ta'limning Davlat ta'lim standarti bo‘yicha o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, tayanch kompetensiyalari va aqliy rivojlanishi, dunyoqarashini kommunikativ savodxonligi va o‘zini-o‘zi anglash salohiyatini shakllantirish, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga o‘rgatish, kompetensiyaviy faoliyatini kengaytirish, o‘quvchilarning erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish ko‘nikmalarini egallashlariga erishishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda tasdiqlangan “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limining takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son

qarori ta'lim-tarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi .

Tayanch kompetensiyalar

Tayanch kompetensiyalar Tayanch kompetensiyalarning mazmuni

Kommunikati v kompetensiya	ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi
Axborotlar bilan ishlash kompetensiya si	mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi
O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiya si	doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish,

		o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi
	Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya si	jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi
	Milliy va umummadaniy kompetensiya	vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi
	Matematik savodxonlik	fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi

--	--	--

“Ona tili” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari belgilangan

“Ona tili” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi	“Ona tili” fanini o‘qitishning asosiy vazifalari
o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va tayanch kompetensiyalari rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat	o‘quvchilar shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, unda umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi uchun A1 va umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi uchun A1+ daraja talablari belgilangan. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. "Ona tili" fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limi muassasalari (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) 4-sinf bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari ishlab chiqilgan .

"Ona tili" fani bo'yicha malaka talablari

№	Fanga doir kompetensiyalar	A1 (boshlang'ich darajasi)	A1+ (kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi)
1.	Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish)	berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi; matnni tushunib o'qiy oladi og'zaki nutqda so'z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi; 65-70 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila oladi; do'sti, ota-onasi,	sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi; matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi; 70-75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi

		ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi	
2.	Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid)	ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi; mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi	so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini "Ona tili" darslarida shakllantirish va takomillashtirishni belgilab olishdan avval, "Ona tili" o'quv dasturining mazmunini tahlil qilish lozim deb hisobladik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tayanch kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni ijtimoiy-madaniy, sinergetik, fenomenologik va aksiologik yondashuvlarni o'zaro yaxlitlash, taksonomiya, intensivlik, assimiliyasiya, natijaviy elementlarini rivojlantirishga bog'liq xususiyatlarini vaqtinchalik va fazoviy chegaralarini belgilash asosida aniqlangan.

O'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari, ularga qo'yilgan talablar davlat hujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan. Shuningdek, "Ona tili" fan dasturida ham tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni va uning vazifalari aniq ko'rsatilgan. Dasturga ko'ra, birinchi sinfga kelgan bolalarning savodini chiqarish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Ular boshlang'ich sinf davomida sidirg'a o'qish va savodli yozish kabi adabiy til me'yorlarini egallaydilar.

Savod o'rgatish dasturida savod o'rgatish jarayoni ikki davrga bo'lib ko'rsatilgan: alifbogacha bo'lgan tayyorlov davri va alifbo davri. «Alifbe»

darsligiga asoslangan holda savod o'rgatish o'quv darslari o'quvchilarni to'rt oy davomida elementar o'qishga, yozuv darslari va yozishga o'rgatishi lozim. Demak, savod o'rgatish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni o'zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'zbek tilining boy imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarini bahramand qilish boshlang'ich ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. "Ona tili" fan dasturi tilshunoslikning bir qancha bo'limlarini qamrab olgan. Bu bo'limlar o'zaro ichki bog'lanishda bo'lib, boshlang'ich sinflarda ularni o'rganish tilni bir butun sistema sifatida o'zlashtirishni ta'minlasa-da, o'ziga xos murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, tilshunoslikning "Fonetika", "Grafika", "Orfoepiya", "Orfografiya" bo'limlari materiallari boshlang'ich ta'limda birgina "Tovushlar va harflar" bo'limiga, barcha so'z turkumlari birgina "So'z" bo'limiga, butun sintaksis "Gap" bo'limiga birlashtirilgan. Bundan tashqari, tilning barcha bo'limlarini nazariy o'rganish jarayonida leksika va imloni o'zlashtirib borish nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish jarayonida tilni amaliy o'zlashtirishda o'quvchilar bir qancha qiyinchiliklarga duch kelayotganining guvohi bo'ldik. O'quvchilarning badiiy matnni qayta yaratish, nutqini yozma savodli ifodalashi talab darajasida emas. Vaholanki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini va (yoki) davlat ta'lim talablarini bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir", – deb belgilab qo'yilgan [1].

Savodli va nutqiy kompetentlik ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-metodik faoliyatining asosiy yo'nalishi tayanch kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu ona tilini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, nutqiy xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash, adabiy-badiiy nutq shaklini o'rgatish orqali amalga

oshiriladi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, “Ona tili” o‘quv fani dasturidagi mavzularni puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradigan o‘quvchilarda til materialidan foydalanishga qiziqish uyg‘otadigan, unda tildan amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltiradigan, ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning omili sifatida e’tirof etilayotgan ilg‘or o‘qitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish davr talabidir. Bu talabdan kelib chiqib, ona tili ta’limiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

1) ta’lim jarayonini tashkil etuvchi o‘quvchi va o‘qituvchi shaxsiga o‘quv faoliyati sub’ektlari sifatida yondashuv;

2) o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvini ta’minlash;

3) o‘qituvchilarning ona tili o‘qitishning takomillashtirilgan an’anaviy va noan’anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi va malakasini o‘stirib borish;

4) “Ona tili” darslari loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish;

5) o‘quvchilarning tilni amaliy o‘zlashtirishlari uchun leksik-grammatik mashq topshiriqlarini bajarish usullarini takomillashtira borish;

6) o‘quvchilar faoliyatini, o‘zlashtirish darajasini doimiy o‘rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olish.

Takomillashtirilgan va kompetensiyaviy yondashuvga tayanilgan DTSning maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “Ona tili” fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) o'quvchi shaxsini fikrlashga;
- 2) o'zgalalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari o'z ichiga olgan tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish;
- 4) ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish.

Boshlang'ich ta'limda – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanoq, o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga, tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagi rasmiy manbaalardan kelib chiqib, tayanch kompetensiyalar, kompetentlik, uning rivojlanish bosqichlari, tamoyillari va qonuniyatlari haqida pedagog-olimlarning nazariyalari tahlil qilindi. Asosiy nazariy manbalarga tayanib, xususiy fikrlar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xozirgi kunda, 1-4 sinf o'quvchilarining "Ona tili" darslarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor maqsadning biri – yosh avlodga har tomonlama etuk, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib tariyalashdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi. O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, bolalar ensiklopediyasi hamda tasviriy ifodani aks ettiruvchi bolalar kitoblari asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari Sharq mutafakkirlarining merosi, she'r va g'azallari, badiiy ijod namunalari dasturi amal

bo‘lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy qarashlariga tayanib ish ko‘rilsa, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish ta'lim jarayonining asosi bo‘lgan, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir.

Markaziy Osiyoda ta'lim metodlarining rivojlanish tarixi o‘rganilganda, ta'limda turli usullarning amaliyotda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino “Tadbir al-ma'nozil” asarida yosh bolalarni tug‘ilganidan boshlab voyaga etgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni yakka tartibda o‘qitishdan ko‘ra jamoa tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi haqida shunday deb yozadi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘quvchilar birga bo‘lganlarida doim birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z tasavvuri va nutqlarini rivojlantiradilar” [184].

Mustaqillik bizning mamlakatimizda ta'lim sohasida ta'lim mazmunini o‘zgartirish, maktabni ixtisoslashtirish, majburiy to‘rt yillik boshlang‘ich ta'limga yo‘naltirilgan islohotlar bilan boshlandi. Madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy omillar mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning shaxsdan ta'lim sifati, ta'lim xizmati darajasiga, umri davomida o‘ziga-o‘zi baho berish mustaqil ilm olishga chorlaydi. Hayotning o‘zi maktab ta'limini o‘zgartirishni talab etadi: “bilim berish” prinsipidan “zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashga o‘rgatish” prinsipiga o‘tish kerak. Bugungi kunda maktab o‘z oldiga bu maqsadlarni qo‘ymaydi va eski an'anaga ko‘ra “bilim beradi”, o‘zi uni tekshiradi va nazorat qiladi. Maqsadni belgilashning o‘zgarishi – XXI asrning asosiy talabi bo‘lib, ta'lim tizimidagi kompetentli yondashuv bilan bog‘liq [152]. Bunda nisbatan mahalliy pedagogik nazariyadan u ta'lim sohasida o‘tkazilayotgan siyosatning konseptual asosi rolga da'vogar bo‘lgan

asta-sekin ijtimoiy ahamiyatli hodisaga aylanadi.

Ta'lim falsafasi va tarixi nuqtai nazaridan kompetentli yondashuv pedagogika fani doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izohlash uchun xizmat qiladi. Bilimlilikning kompetentli modeli hayot vazifalari butun ko'lamini bajarishga ijtimoiylashuv, ta'lim, umumiy va kasbiy tayyorgarligi mahsuli bo'lib, erkin insonparvar yo'nalgan tanlovni amalga oshirishga tayyor, mas'uliyatli individ bo'lishi kerak bo'lgan, o'zgaruvchan "ochiq" jamiyat bilan bog'liq [136].

Ta'limdagi maxsus yo'nalish sifatida kompetentli yondashuv XX asr 60 yillari oxirlarida yuzaga kelgan. Ta'lim maqsadlari va mazmunini aniqlashda ko'rsatib o'tilgan yondashuv umumta'lim maktablari uchun yangi va begona hisoblanmaydi. Faoliyat ko'nikmalari, usullarini, shuningdek, umumlashgan faoliyat usullarini o'zlashtirishga yo'nalganlik V.V.Davidov, V.Yu.Krichevskiy, I.Ya.Lerner va ularning izdoshlarining ishlarida etakchi hisoblangan [116, 140, 43]. Ammo mazkur yo'nalganlik asosiy hisoblanmagan, shuning uchun bugungi kunda kompetentli yondashuvni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'limi an'analari va ehtiyojlarini inobatga olish bilan xalqaro tajribaga tayanish zarurdir.

G'arb olimlarining fikriga ko'ra, kompetentli yondashuv, ta'lim mazmuni, uning metodlari va texnologiyalarini yangicha ko'rishga olib keladi [125].

Xorijiy davlatlarda A.Blum, C.Dweeck, M.Gettings, A.Kohn, Radha Mohan, Hutmacher Walo, L.Hetland, E.Winner, S.Veenema, K.M.Sheridan va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan [13, 14, 15, 16, 17, 75, 76, 77].

Kompetentli yondashuv tarafdorlari uning muhim natijasi bitiruvchining ma'lumoti sifatini oshirish deb hisoblaydilar. Kompetentli yondashuvning asosiy tushunchalari «kompetentlik» va «kompetensiya» hisoblanadi.

Ta'lim kompetensiyalari va kompetentliklari tushunchasi ilmiy pedagogik tilida ko'p qo'llanilmoqda. Yangi atamalarga o'z munosabatlarini www.auditorium.ru portalining elektron sahifalaridagi muhokamalarda mashhur

pedagoglar bildirganlar, uning materiallari A.Daxinning maqolasida umumlashtirilgan [34].

Ziddiyatlarning asosiy manbai – «ko‘nikmalar» va «kompetensiyalar» tushunchalarini bog‘lash hisoblanadi. Ayrimlar, ularning ayni deb hisoblaydilar va yangi ta'riflarni kiritish hisobiga atamalar apparatini kengaytirish zaruratini ko‘rmaydilar, boshqalar esa ularning mazmunini va umumiyligi turli darajasini sifatli ajratish zarur, deb hisoblaydilar va ularni pedagogika fanining mustaqil toifali birliklari sifatida tan olishni talab etadilar.

Ko‘rsatib o‘tilgan bahs ko‘pgina ishtirokchilarining fikrlariga qo‘shilamiz, uni umumlashgan holda professor V.V.Guzeev quyidagicha ifodalagan: «Bu ma'noda men, mos atamaga muhtoj bo‘lgan pedagogikadagi yangi hodisani ko‘ryapman» [113].

Rasmiy hujjatlarda yangi atamadan foydalanish misollari mavjud, masalan, «Umumiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi» quyidagilar ifodalangan: «o‘quvchilarning intellektual, huquqiy, axborot va boshqa sohalardagi tayanch kompetensiyalari majmui to‘g‘risida gap bormoqda». Kompetensiyalarga yo‘nalganlik, shuningdek, asosiy mezonlari bilim, ko‘nikma, malakalar (BKM) bo‘lgan eski ta'lim paradigmasidan ajratishni, bunda BKMlarni ta'lim jarayonining zarur elementlaridan biri sifatida saqlash bilan ta'minlaydi.

Bildirilgan fikrlarni taqqoslash, ularni prinsipial holatlar bo‘yicha umumlashtirish asosida kompetensiyalar va kompetentlikni aniqlashga hamda ular o‘rtasidagi mazmunli aloqalarni o‘rnatishga uch nuqtai nazarlarni ajratish mumkin

Kompetensiyalar va kompetentlikni aniqlashga doir mulohazalar

№	Nuqtai nazarlar	Olg‘a surilgan fikrlar
1.	Birinchi nuqtai nazar	kompetensiya shaxssiz, bu me'yor, talablar, sifatlar to‘plami, mutaxassisning o‘ziga xos malakaviy tavsifi. Uning vazifasi inson, mutaxassis, o‘quvchi ma'lum sharoitlarda va ma'lum joyda nima qilishni

		bilishi kerakligini aniqlashtirishdan iborat. Unga echiladigan muammolarning yoki bajariladigan ish turlarining murakkabligini ifodalovchi mos darajalar, toifalar tayinlanishi mumkin. Kompetentlik mazkur holatda o'rganilayotgan kompetensiyaga ega bo'lgan insonning mavjud sifati tariqasida u xususiy mahalliy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, biror-bir kasbiy faoliyat uchun bir necha kompetensiyalarni egallash to'g'risida gap borsa, unda kompetentlik integrativ sifat kabi xizmat qiladi va kasbiy kompetentlik deb ataladi
2.	Ikkinchi nuqtai nazar	«kompetensiya» tushunchasini kengaytiradi va uning doirasiga insonning o'zlashtirgan funksiyalariga yakuniy talablarni, balki unda shakllanadigan psixik, fiziologik, aksiologik, ijtimoiy, faoliyatli tuzilmalarni ham qamrab oladi. Faqat shundan keyingina kompetensiyalar kompetentlik mavqeiga ega bo'ladi, chunki ularning ob'ektiv mazmuni shaxsiy sifatlarning sub'ektiv obraziga aylanadi. Ikkinchi nuqtai nazarning birinchisidan farqi «kompetentlik» tushunchasini kengroq talqin etishdangina iborat
3.	Uchinchi nuqtai nazar	kompetensiyalar to'g'risida faqatgina ularni xususiy masalalar va vazifalarni echishga tayyorlik va qobiliyatlilik bilan bog'liqligi to'g'risida aytish mumkin, kompetentlik esa insonning muayyan sohadagi qator kompetensiyalarni egallaganligi to'g'risida guvohlik beruvchi kompleks tavsif sifatida qaraladi. Xususiy va mahalliy kompetentliklar tushunchasi mazkur holatda ma'nosini yo'qotadi

Keyingi o'rganishlarda ikkinchi nuqtai nazarga tayanamiz. Unga ko'ra

«o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish» so'z birikmasi nafaqat o'rinli, balki maktab ta'limiy faoliyatining mazmunini ham tashkil etadi. Tanlangan nuqtai nazar taniqli pedagog A.V.Xutorskiyning fikri bilan aloqador bo'lib, u kompetentlikni insonning mos kompetensiyaga egaligi, maktab ta'limining maqsadi esa ierarxik tuzilishga ega bo'lgan kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishi hisoblaydi [67].

Bizning tadqiqot ishimizda kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitlarida rivojlantiriladigan o'qituvchi kasbiy kompetentligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va kompetentli yondashuv birligi bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini har tomonlama tadqiq etish imkonini yaratadi. Qo'yilgan muammoni hal etish uchun «kompetentlik», «kasbiy kompetentlik», «o'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchalari mohiyatini aniqlashga asosiy yondashuvlarni tahlil qilamiz.

Adabiyotlarni o'rganish natijalari ko'rsatishicha: birinchidan, «kompetentlik» tushunchasining falsafiy va psixologik lug'atlardagi talqini mavjud emas [125, 188]; ikkinchidan, ba'zi mualliflar psixologik-pedagogik adabiyotlarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarini ajratmaydilar [129]

«Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash uchun mazkur tushunchalar o'zbek tili atamalar lug'atida, boshqaruv bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalarda qanday ifodalanganligini tahlil qilamiz. «Kompetensiya» tushunchasi lug'atlarda quyidagicha talqin etiladi:

bu muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan, mazkur organ ustavi yoki boshqa qoidalar bilan belgilangan vakolatlari (huquq va majburiyatlari) yig'indisi [246];

kimdir yaxshi xabardor bo'lgan masalalar sohasi.

Mazkur ta'riflardan ko'rinib turganidek, kompetensiya tushunchasi turlicha

talqin etiladi.

B.Xodjaevning fikricha kompetensiya (lotincha soʻz boʻlib, erishaman, toʻgʻri kelaman ma'nolarini bildiradi) – sub'ektning maqsadni qoʻyish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi boshqacha qilib aytganda, bu sub'ektning muayyan kasbiy masalalarini echa olishga shaxsiy qobiliyatidir [222]

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda, ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, bizning fikrimizcha ham, kompetensiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida kerak boʻladigan qobiliyatlar yigʻindisidir. Ularni toʻla egallamay turib, hech bir mutaxxasis oʻz pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi.

Kompetensiyaning turlarini tasniflashga doir xilma xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – etarli yuqori darajada oʻz kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, oʻz mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik:

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformasiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qoʻllash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy oʻsish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil rehabilitasiya qilishga tayyorgarlik;

tayanch kompetensiyalar – moslashish va maxsuldor faoliyat uchun zarur boʻlgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va koʻnikmalari [248]

Kompetensiyaning muayyan sinf muhiti ob'ektlari va jarayonlarida ma'lum mahsulotni olish bilan sub'ektning xabardorligi, koʻnikmalari, mazmunli

yoʻnalganlik, moslashuv imkoniyatlari, faoliyat tajribasi va usullarining tizimli majmui sifatida taʼriflaymiz. Kompetensiya umumiy holatda jarayon sifati va uning natijalariga muayyan faoliyatli bosqichning mazmunli qismi doirasidagi maʼlum meʼyor, talablar majmui sifatida tushuniladi. U shaxssiz va koʻp omilli. Bir tomondan, u bajarilgan ishning sifati belgilanadigan omillarning muayyan majmuini ifodalaydi, boshqa tomondan esa, har bir omil uchun miqdoriy shkalani belgilashi mumkin.

Kompetentlik ostida mos kompetensiyalarning mavjudligi va faol holatini tushunamiz, ularga koʻra inson maʼlum muammolarni amaliy hal etadi va buni kelajakda amalga oshira oladi. Ayrim mualliflardan farqli ravishda biz mazkur tavsiflarni faqatgina insonning taʼlim muassasasidagi davriga bogʻlamagan boʻlar edik. Ochiq taʼlim modeli umumtaʼlim oʻquv muassasalariga kirib kelmoqda, uning birinchi belgisi mazkur taʼlim bosqichidagi qonuniy eksternat hisoblanadi. Keltirilgan fikrlarning oqibati sifatida taʼlimiy kompetensiya yuqorida umumilmiy «kompetensiya» tushunchasiga ayrim umumiy tushunchalarni ochib berishda berilgan ifodasi bilan belgilanadi.

Ilmiy-nazariy fikrlardan kelib chiqib, boshlangʻich taʼlim talablari tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni takomillashtirdik (1.1-rasmga qarang). Natijada quyidagi taʼrifga ega boʻlamiz: tayanch kompetensiya – oʻquvchiga taʼlim sohalarida va oʻquv fanlarining tarkibiga kiritilgan namunaviy koʻrinishlar va jarayonlarning maʼlum maʼnoni olish bilan bilim, koʻnikma, malaka, mazmuni, qadriyatga yoʻnaltirganlik, bir nechta imkoniyatlarni, faoliyat tajribasiga va metodlari tizimining majmui xisoblanadi. Ilmiy tahlilning qulayligi va kompetensiyalarning butun koʻp qirraliligidan amaliy foydalanish uchun ularni muayyan ierarxik sxema boʻyicha guruhlariga ajratiladi. A.V.Xutorskiy [67, 68] tomonidan taklif etilgan klassifikasion modelni qabul qilamiz. U umumiy taʼlimga nisbatan taʼlimiy kompetensiyalarda asosiy (mavzu boʻyicha), umumfan va fanga oid kompetensiyalarni ajratadi.

Umumiy asosiylari – barcha ta'lim mexiyati (maktab va maktabdan tashqari) ta'siri ostida rivojlanadi va o'quvchi rivojlanadigan muhitning ta'sirini aks etadi. O'zining ijtimoiy mavqei bo'yicha ularni shakllantirishning umumiy muvofiqlashtiruvchisi bo'lib ularning ota-onalari xizmat qilishlari kerak. Ammo, haqiqatda ko'pgina sharoitlar tufayli aynan maktabga mazkur rol yuklatiladi. Ta'lim dasturlari to'laqonli shaxsni shakllantirishga yo'naltiriladi, demak, ular mazkur jarayonga pedagogik rahbarlikni maktabga yuklatadi. Umumfan kompetensiyalari o'quv fanlari va ta'lim sohalarining muayyan doirasining tizimli ta'siri ostida rivojlanadi, masalan, atrofdagi borliqda miqdoriy baholarning maqsadga muvofiq va savodli foydalanish. Fanga oid kompetensiyalarga xususiy rol taalluqli. Har bir fan asosiy va umumfan kompetensiyalariga o'z hissasini qo'shib, ayrim va faqatgina o'zining o'quv dasturi doirasidagi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Misol tariqasida “Chizmachilik”, “Jismoniy tarbiya”, “Musika” kabi fanlarni keltirish mumkin.

Tayanch ta'limiy kompetensiyalarning to'plamlari turli mualliflarda o'z tuzilishiga ega. Ammo atamalarning bir xilligiga doim ham rioya etilmaydi: ayrimlar kompetensiyalar to'g'risida, boshqalari kompetentlik to'g'risida fikr yuritadilar, ammo bunday masalaning mohiyati o'zgarmaydi.

N.A.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug'aviy ma'nosi “qobiliyat” demakdir, biroq, kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi [159]

N.V.Tarasova “kompetensiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o'rtasida aloqadorlikni ta'minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi [62]

Taniqli pedagoglar tomonidan taklif etilgan tayanch kompetensiyalar to'plamlarida mazkur kompetensiyalarning mazmuni va ro'yxatini tanlashdagi mazmunli asoslarini ko'rib chiqamiz. A.V.Xutorskoy [166] mazmunli asos sifatida ta'limning asosiy maqsadlari yo'nalishida o'quvchiga ijtimoiy tajribani egallashi va jamiyatda amaliy faoliyat malakalarini egallashiga imkon beruvchi uning

faoliyatining asosiy ko‘rinishlarini tanlagan. Uning tomonidan asosiy ta'limiy kompetensiyalarning quyidagi ro‘yxati belgilangan:

- qadriyatli-mazmunli;
- umummadaniy;
- axborotli;
- o‘quv-bilishga oid;
- kommunikativ;
- ijtimoiy-mehnatga oid;
- shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirish.

Tayanch ta'limiy kompetensiyalarda ta'limning umumiy (metafanga oid) mazmunining quyidagi jamlangan o‘zaro bog‘liq komponentlari ifodalanadi:

- o‘rganilayotgan voqelikning haqiqiy ob'ektlari;
- o‘rganilayotgan voqelik to‘g‘risidagi umummadaniy bilimlar;
- umumo‘quv ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari.

A.V.Xutorskoy tayanch kompetensiyalarning mazkur ro‘yxati ta'limning yosh bosqichlari va o‘quv ta'limiy sohalari bo‘yicha batafsil yoritilishi zarurligini hamda bunday asosda loyihalanadigan ta'lim ayrim fanga oid, balki yaxlit kompetentli ta'limni ta'minlashi mumkinligini ta'kidlaydi [68].

Keltirilgan ro‘yxatni, masalan umummadaniy, axborot va kommunikativ guruhni bir guruhga birlashtirib qisqartirish mumkin deb hisoblaymiz, chunki turli kommunikasiya va axborot vositalarini egallash jamiyatda umumiy madaniyat belgisiga aylangan. Shu bilan birga, inson agar rivojlangan ijtimoiy moslashuv malakalariga ega bo‘lsa jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va muvaffaqiyatli o‘z-o‘zini amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun, tayanch kompetensiyalar sifatida qo‘shimcha sifatida ijtimoiy-moslashuv kompetensiyasini belgilash mumkin edi.

Tayanch ta'limiy kompetensiyalarning biroz o‘zgacha tasnifini taniqli pedagog G.K.Selevko keltirgan [58]. U «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari sinonim hamda tizimli va ko‘p komponentli deb hisoblab, tuzilishli o‘shashlik bo‘yicha tayanch kompetensiyalarni ettita integrativ kompetentliklar

(superkompetentliklar) guruhiga ajratadi:

matematik;

kommunikativ;

axborotli;

avtonomlashgan;

ijtimoiy;

mahsuldor;

axloqiy.

U superkompetentliklarning mazkur tarkibi YUNESKO tavsiyalari va “Umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiyalash” konsepsiyasida mavjudligini alohida ta’kidlaydi. Ammo inson (o‘quvchi) hayot faoliyatining turli tomonlarining har tomonlama qamrab olinganligi qaramay, mazkur ro‘yxatda umummadaniy rivojlanish va kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashni ifodalaydigan muhim tashkil etuvchilar etishmaydi. Muallif tayangan mazmunli asosning noaniqligi, barcha fan sohalaridan faqatgina matematika ajratilganligi ma’lum norozilikni keltirib chiqaradi.

Kompetentli asosda ta’limni modernizatsiyalashning o‘z talqinlarini V.A.Bolotov va V.V.Serikov ifodalaganlar [26; 12-b.]. Ularning fikrlariga ko‘ra, kompetentli yondashuvda “bilimga yo‘nalgan komponent bilan cheklanmagan, balki hayotiy muammolarni hal etish, asosiy (ya’ni ko‘pgina ijtimoiy sohalarga taalluqli bo‘lgan) vazifalarni, ijtimoiy rollarni, kompetensiyalarni bajarishning yaxlit tajribasini nazarda tutuvchi ta’lim mazmuni turi” ifodalangan [26; 12-b.]. Birinchi o‘ringa o‘quvchining xabardorligi emas, balki quyidagi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish ko‘nikmasi ilgari suriladi:

borliq hodisalarini bilish va tushuntirishda;

zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishda;

insonlarning o‘zaro munosabatlarida, axloqiy me’yorlarda, o‘z xulqlarini baholashda;

hayot amaliyotida fuqaro, oila a’zosi, xaridor, mijoz, tomoshabin, aholi, saylovchi ijtimoiy rollarini bajarishda;

huquqiy me'yorlarda va ma'muriy tuzilmalarda, iste'molchilikning asosiy ko'rinishida;

kasbiy tushunchalarni egallash va mehnat bozorining asosiyliigi kerakligida, o'z kasbiy tushunchalariga va ta'lim muassasalarida ilm olishga va intilishlarini to'g'ri baholay olishidadir;

ijtimoiy hayotda o'zini-o'zi baholashning insoniylik sabablarini aniqlashda, hayotdagi uslubiy jarayoni va tarzini, turli xil muammolarni hal etishda asosiy o'rin egallaydi.

Ko'rsatib o'tilgan mualliflar ta'lim mazmunining asosi deb bilimlarni emas, balki yanada murakkab madaniy-didaktik tuzilma – ma'lum kompetensiyalar majmuini egallash natijasi sifatidagi yaxlit kompetentlikni hisoblaydilar. Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, mazkur ro'yxatda axborot va qadriyatli-mazmunli sohalarda hamda shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish sohasida yuzaga keladigan muhim vaziyatlar (kompetensiyalar) etishmaydi.

Ta'lim tizimi ishining mahsuli belgilangan xususiyatlari va sifatlarga ega shaxs hisoblanadi, tizimni oldindan loyihalash esa faqatgina shakllantiriladigan shaxsning xususiyatlari va sifatlari diagnostik belgilanganida mumkindir. Bu ta'lim maqsadlarini etarlicha aniq belgilashga va o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda uni bajarish sifatini nazorat qilishda unga rioya etishga imkon beradi. Umumiy maqsadni belgilash uchun shaxs strukturasini ifodalashdan foydalaniladi, uni belgilangan ta'lim muddati orqali tizimning yakunida ega bo'lish nazarda tutiladi. Umumiy o'rta ta'lim uchun shaxsni asta-sekin va bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonini ifodalaydigan bir necha shaxs modellari yaratilmoqda: boshlang'ich, to'liq bo'lmagan o'rta va to'liq o'rta ta'lim modellari. Shaxs modellari shaxsning barcha xususiyat va sifatlariga talablardan ko'ra to'liqroq ifodalanadi hamda ularning minimal mumkin bo'lgan darajalari ko'rsatiladi.

V.P.Bespalko shaxsiy asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritgan: ijtimoiy, ekzistensial (tajriba), psixik (intellektual), biologik (irsiy) [97]. Minimallik talabi ixtiyoriy maktab va ixtiyoriy o'quvchi uchun ta'lim jarayonini amalga oshira olishni

ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur talab sharoitlar mavjud bo'lgan joyda (qobiliyatli o'quvchilar va mahoratli o'qituvchilar) ixtiyoriy yuqori yutuqlarga yo'lni to'sib qo'ymaydi. V.P.Bespalko shaxsning asosiy xususiyatlariga qisqa (annotatsiyali) ta'rifni va ularni shaxs sifatleri tushunchasi orqali talqinini keltiradi. Insonning ijtimoiy ko'rinishlari tuzilmasining shaxsning fikrlashi, odobi, etik va mehnatsevarlik ko'rinishlari talqin qilinadi. Insonlar orasidagi turli xil ko'rinish va sifatleri biz jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ko'rishimiz mumkin. Ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni fikr yuritishi va mukammallikka erishishida turli xil bosqichlarni bosib o'tadi.

Ijtimoiy hamda ekzistensial xususiyatlar shaxs tomonidan faqatgina tashkil etilgan o'qish va insonlar bilan barcha mumkin bo'lgan aloqalar natijasida egallanadi. Ular sharoitlar va ta'limga ko'ra hayot davomida o'zgarishi mumkin. Intellektual xususiyatlar idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur kabi sifatlar, irsiylar esa – layoqatlar, nerv tizimi turi, reseptorlar, effektorlar bilan tavsiflanadi. Har qanday shaxsda ko'rsatilgan ijobiy sifat va xususiyatlar har hil ko'rinishda aks etadi va bir nechta aloqalarda inson sifatida ijtimoiy tenglikni ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining maqsadlarining o'z talqinlarini T.I.Shamova rahbarligidagi pedagog olimlar guruhi ifodalagan [227]. Ularning fikrlariga ko'ra, ta'limni rivojlantirishda eng istiqbolli bo'lib, insonning butun hayoti davomidagi ta'lim konsepsiyasi hisoblanadi. Ta'lim jarayonidagi turli xil o'zgarishlar kelajak avlodning ilmga bo'lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda bilim va ko'nikmaning o'rni bor. Mazkur konsepsiyaga binoan zamonaviy ta'limning maqsadi o'quvchilarga quyidagilarda yordam beradigan sharoitlarni yaratish hisoblanadi: yangi bilimlarni egallash, birgalikda yashashga o'rganish, ishlashga o'rganish, o'z-o'zi bilan hamjihatlikda yashashga o'rganish. Kengaytirilgan shaklda tayanch kompetensiyalar to'plami variantlaridan birini ifodalash asosiga olish mumkin.

O'quvchilarning ish (xatti-harakat) usullarini o'zlashtirishlarida atrof muhitning ham ta'siri bor, o'quvchidagi turli xil muammolarni hal etish ko'nikmasi va turli ijtimoiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarida ishlash qobiliyati bilan bog'liq

keng kompetentlikka intilish ehtiyojini shakllantirish. O'quvchilarga birgalikda yashashga o'rganishlarida ko'maklashish – bu ularda boshqa insonni qabul qilish va tushunishni, unga qadriyat sifatida munosabatni tarbiyalash hamda o'quvchilarda guruhda, sinfda, oilada, jamiyatda, olamda birgalikda yashash intilish va ko'nikmalarini tarbiyalashga ko'maklashish.

O'quvchilarda o'z-o'zi bilan uyg'unlikda yashashda yordam ko'rinishida belgilanadigan maqsad ehtiyojlar, biror nimaga erishish, xar qanday imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, hayotdagi murakkab vaziyatlarni o'rinli baholash, shaxs sifatida o'zining iqtidorini namoyon etishda, ilm olishga bo'lgan jo'shqinlikni, estetik ehtiyojlarni o'zining, menini o'z o'ziga bo'lgan ishonchning rivojlanishi, imkoniyatlar yaratish va berilgan sharoitdan to'hri xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish o'rgatish.

Ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishda kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim faoliyatining bevosita natijasi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ishlari ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, maktab ta'limining asosiy maqsadi, tayanch kompetensiyalar ko'rinishida ijtimoiy talab etilgan natijaga erishish hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi yurtimiz va xorijiy izlanuvchilar bilan hamkorlikda ko'rib chiqilgan tayanch kompetensiyalar majmui tahlili, maktab ta'limiga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy talablar mazmunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalari mualliflik to'plamini ishlab chiqishga undadi. Tayanch kompetensiyalarni amaliy-nazariy asosi bo'lib pedagog va psixologlarning shaxs va uning ob'ektiv tomonlari ta'lim sohasidagi rivojlanishida xizmat qiladi.

Umumiy ta'lim jadal o'sib borayotgan yangi bilimlar hajmini egallash yolg'on tasavvurlaridan voz kechib ulgurgan bo'lsada, biroq, hodisalarning bunday rivoji bitiruvchilarning funksional savodxoliklariga to'g'ri talablarni ta'minlash bilan maktabning o'n bir yillik ta'limida qamrab olish mumkin bo'lgan o'quv axborot minimumini aniqlash to'g'risidagi masalani izohlaydi.

Tayanch kompetensiyalar ro'yxatini belgilovchi tasnifiy belgining asosini

insonning olamda mavjudligi va ular o'rtasidagi munosabatlar tizimi tashkil etishi kerak. Boshqacha aytganda, kompetensiyalarning metadarajasini, jumladan, ta'limiy kompetensiyalarni "Olam va inson" substansional maydonida joylashtirish taklif etiladi. Mazkur metotizimda uchta tayanch komponentlar mavjud: olam, inson va ularning o'zaro aloqalari usullari. Inson tizimning faol bo'g'ini sifatida uning barqaror holatini ta'minlaydi va mavjud bo'lgan muvozanatlarni qo'llab-quvvatlaydi, agar u:

atrofdagi olam to'g'risida ob'ektiv tasavvurga ega bo'lsa (noosfera, jonli va jonsiz tabiatning tashqi ob'ektlari, insonlar, jamiyat);

tashqi olam qonuniyatlarini va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni bilgan bo'lsa;

olamdagi foydali qayta ifodalash faoliyati malakalariga ega bo'lsa;

biologik-ruhiy-ijtimoiy-mavjudot sifatida o'zining va o'z ichki olamining mohiyatini tushungan bo'lsa;

o'zi to'g'risidagi tasavvurlar tizimi sifatida "Men" konsepsiyasini hosil qilgan va anglagan bo'lsa;

o'z-o'zini rivojlantirish ichki ehtiyoji asosida intellektual, ma'naviy va jismoniy o'z-o'zini takomillashtirish usullarini o'zlashtirgan bo'lsa;

boshqa insonlar bilan muvaffaqiyatli o'zaro aloqalar tajribasini o'zlashtirgan bo'lsa.

Insoniyat sivilizasiyasining izchil, progressiv rivojlanishiga, olamdagi kelgusi integrasion jarayonlarni, o'zaro tushunish va o'zaro yordamni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashuvchi ifodalangan sharoitlarni yaratish agar insonlarga muayyan sifatlar guruhi – kompetensiyalar xos bo'lganida haqiqatga aylanishi mumkin. Bu kompetensiyalarni quyidagicha nomlaymiz:

yo'nalishli-statik (inson va olamning tuzilishi sohasidagi bilimlar);

yo'nalishli-dinamik (jonli va jonsiz olam. Insondagi jarayonlar sohasidagi bilimlar);

tashkiliy-faoliyatli (tashqi olam va jamiyatning odatiy ob'ektlarida);

shaxsiy-rivojlantiruvchi;
moslashuvchan;
axborot-kommunikasion;
ijtimoiy-barqarorlashtiruvchi.

Dastlabki ikki kompetensiyalar insonning intellektual darajasini, uning olam (jumladan, o'zining) tuzilishi, ya'ni olamning statik modellari va undagi sodir bo'layotgan jarayonlar, ya'ni uning dinamik modellari to'g'risidagi bilimlarini ifodalaydi. Qolganlari faoliyatli xususiyatga ega. Tayanch kompetensiyalarning mazmuni keltirilgan.

Bizning taklifimizda biz, avvalo, aniq va tushunarli metodologik asosni (olam va inson: alohida va birgalikda) ajratdik va o'zi hamda atrofdagi voqelik bilan uyg'unlikka qobiliyatlilik inson va jamiyatga o'zaro qoniqishni keltiruvchi samarali ijtimoiy mavjudlikning garovi hisoblanadi.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va metodikasini takomillashtirish ta'lim natijalarining asosiy iste'molchilari bilan belgilanadi va hozirgi vaqtda mazkur jamiyatda qaysi qobiliyatlar va sifatlar qadrli hisoblanishiga bog'liq. Ammo kompetentli yondashuv mantiqida jamiyat rivojining har bir yangi bosqichida u yoki bu kompetensiyalarni aktuallashtirish to'g'risida gap boradi. Ta'lim muassasasi sharoitlarida taklif etilgan asosiy kompetensiyalar butun hayot tarzi, uning ta'lim muhiti ruhi, o'quv dasturlarining mazmuni va o'qituvchilar tarkibining shaxsiy ta'siri bilan shakllanadi. Tayanch kompetensiyalar metodologik funksiyani bajaradi. Mazkur fanga oid talablarning keyingi batafsil tushuntirishlari umumfan va fanga oid kompetensiyalarda amalga oshiriladi va ular alohida fanlar yoki fanlararo o'quv dasturlarini qurishning ma'lum metodik bazasi bo'lib xizmat qiladi.

§ 1.2. Innovatsion yondashuv zamonaviy maktabda ta'lim jarayonini takomillashtirishning sharti sifatida

Zamonaviy ta'limning rivojlanishi yangi ijtimoiy-madaniy muhitning yuzaga

kelishi xususiyatlarini oldindan ko'ra olishni talab etadi. Uning asosida inson hayotida uchraydigan inqirozli holatlari yotadi. Aynan ularning ifodalanishida innovatsiyalar uchun, individlar va jamiyatning rivojlanishi uchun turtkilar yuzaga keladi. Ularda ta'limni tashkil etish shakli, mazmuni, vazifalari, natijalaridagi o'zgarishlarning zaruratini aks ettiruvchi ta'limning yangi hodisalarining sabablarini ko'rish mumkin. Ta'lim muassasalarining yangi turlari va ta'lim xizmatlarining yangi turlari va shakllari yuzaga keladi.

Ta'limning tijoratlashishi uning maqsadlarining o'zgarishiga olib keladi. Mehnat jarayonida ijodiy o'z-o'zini aktuallashtirishni amalga oshira oladigan yuqori ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj va ularni jamiyatning ko'p qirrali hayotiga kiritishning haqiqiy holati o'rtasidagi uzilishning kuchayishi.

Maktab bitiruvchisi bitirganidan keyin ta'lim tizimidan ijtimoiy tizimga, ya'ni ijtimoiy etuklik, shaxsiy mas'uliyat va mustaqillik talab etiladigan hayot darajasiga o'tishdagi to'siqlarni engishiga to'g'ri keladi, deb ta'kidlash mumkin. Jamiyatning yangi maqsadlari va qadriyatlari ta'lim turlarini anglash zaruratini ko'rsatadi.

B.S.Gershunskiy "Ta'lim falsafasi" ishida ta'limning faqatgina o'rgatuvchi konsepsiyasi intellektni dalillar, nazariyalar, tushunchalar, qonunlar to'g'risidagi bilimlar bilan to'ldirishdan iborat va bu asosiy rol o'ynashi, ustun bo'lishi va iste'molchini emas, balki ijodkor shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan qadriyatli yo'nalganlikni shakllantirishi kerak bo'lgan tarbiyaviy tashkil etuvchini ikkinchi o'ringa surib qo'yishini ta'kidlagan [110].

Ammo umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining darajalari, bitiruv imtihonlari natijalari ko'rsatganidek, yuqori emas, bu esa, keyingi ta'lim olishda ham va texnik jihozlanishining jadal o'zgarishlari bilan ishlab chiqarish sohasidagi ishlarda ham qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu tariqa, maktab oldida bilimlarni egallash va to'plash hamda shaxsning yuzaga kelishi, shakllanishi va ijodini ta'minlay oladigan faoliyat sharoitlari, uning mazmuni, texnologiyalarini yaratish zarurati to'g'risidagi masala yuzaga keladi. Maktab hayoti – bu yaxlit inson hayotining hodisasidir. Ta'limga fenomenologik

yondashuvning mohiyatini aniq tushunish uchun ta'lim oluvchining ichki olami bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonlarining asoslari va usullarini aniqlash zarurdir. Ta'lim muassasasida u alohida vaziyatga – o'z imkoniyatlarini anglash va boshdan kechirishga jalb etiladi.

Tadqiqot ishimiz doirasida biz ta'limni – bu ijtimoiy tashkil etiladigan va tartibga solinadigan, ontogenetik jihatdan shaxsning irsiy dasturi hamda shaxsning ijtimoiylashuviga muvofiq uning shakllanishini ifodalovchi avvalgi ajdodlarning keyingi avlodlarga ijtimoiy ahamiyatli tajribani doimiy etkazishlari jarayoni, deb tushunamiz. U madaniyatni keyingi avlodlarga har bir fuqaro shaxsini shakllantirish orqali doimiy etkazishning ijtimoiy-irsiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi va har qanday kasbiy shakllanishning asosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bilimlarni to'plash bilan bir qatorda bilimlarni izlashga qobiliyatlarni va intilishlarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu rivojlantiruvchi ta'lim to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Mantiqiy yakunlangan bilimlar tizimi ko'rinishidagi madaniy tajribani etkazish asosiy hisoblangan ta'limdagi yondashuv asta-sekin o'tmishda qolmoqda.

Zamonaviy umumta'lim maktabi ta'lim sifatini boshqarishda yangi tizimli metodlarni joriy etishni talab etuvchi sharoitlarda turibdi. Yangi sharoitlardagi rivojlanish davlat ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan va ta'lim sohasidagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, milliy ta'lim siyosatida yangi ustuvorliklarni ishlab chiqish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi paydo bo'lgan yangi voqelik bilan yuzaga kelgan institusional o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Jamiyat tariqqiyotining zamonaviy talablari maktab oldiga yangi maqsadlarni qo'yadi, yangi qadriyatlarni aktuallashtiradi (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini aktuallashtirish). Ularning asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqiladi. U S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, V.V.Davidovlarning ishlarida [190, 232, 116] ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvlarga asoslanadi.

A.G.Asmolov, V.P.Zinchenkolarning zamonaviy tadqiqotlari mazkur

konsepsiyaning umummetodologik mohiyatini ochib beradi, V.A.Bolotov va boshqalar esa, uni tashkiliy-boshqaruv darajasida hal etadilar [8, 51, 17].

Mohiyati bolalar jamoasidagi hamkorlikdagi ishlarda ifodalanadigan o'quvchining aqliy faoliyati va ijtimoiy munosabatlari xususiyatlariga ko'ra o'quv guruhlarini tashkil etish hisoblangan ta'limdagi samarali-umumlashtiruvchi yondashuv konsepsiyasi o'quv vazifalarini hal etish hamda o'quvchilarning munosabatlari takomillashtirish uchun bolalarning muloqotlari xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Jamiyatdagi zamonaviy vaziyat, shuningdek, maktabni boshqarish tajribasi ta'lim tizimining rivojlanishi va mustahkamligining asosiy yo'li – bu har bir ta'lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini ta'minlash ekanligini ko'rsatadi. Raqobatbardoshlikning asosi ta'lim sifati hisoblanadi.

Maktab jamoasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili fanidan bilim va ko'nikmalarni egallashlarida turli xil muammolarga duch keladilar. Ularning bilimlarni egallashlari va tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjud .

Maktabning murakkab iqtisodiy va ijtimoiy-demografik vaziyatga moslashishi jarayonini tahlil qilib, biz, raqobatbardoshlik bir necha tashkil etuvchilardan hosil bo'lishi to'g'risidagi xulosaga keldik.

Birinchidan, bu, maktabning bitiruvchisini keyin bosqich ta'lim xizmatlari yoki mehnat bozoriga moslashishi ta'minlovchi, ta'limning I, II, III bosqichlarida sifatli ta'lim berish qobiliyatidir. Ikkinchidan, bu, maktabning «imidji»: ota-onalar va o'quvchilarning maktab tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar to'g'risidagi etarlicha xabardorliklari va mazkur ta'lim xizmatlari darajasidan qoniqishlari. Uchinchidan, ota-onalar va o'quvchilar ta'lim xizmatlarining barcha turlaridan etarlicha qoniqishlari.

Maktab raqobatbardoshligining ko'pgina bilvosita ko'rsatkichlari ham mavjud. Bunda o'quvchilar salomatliklarini saqlash, ruhiy rivojlanishlarining ijobiy

dinamikasi, maktab olimpiadalaridagi ishtirokining samarasi, sinflar jamlanishining muvaffaqiyatliligi, kadrlar malakasining yuqori darajasi, fan, madaniyat va boshqa muassasalarning kadrlar imkoniyatlaridan foydalanish, ta'minlovchi xizmatlarning muvaffaqiyatli ishlari: psixolog, valeolog, logoped, pullik ta'lim xizmatlarining hajmi va sifati bilan qiziqтира olish qobiliyati, ta'lim sifati bo'yicha shikoyatlarning yo'qligi va ko'pgina boshqalar. Maktabning yuqori raqobatbardoshligini rahbar va butun ma'muriyatning ta'lim xizmatlari siyosati sohasidagi malakali ishlari ta'minlashi ayondir. Ta'lim tizimi tarixiy jihatdan jamiyatlar asosida yuzaga kelgan, ularning ijtimoiy aloqalari tashkilotlarning birlashishi bilan bog'liq. Bu jihatdan, ta'lim tizimi ijtimoiy institut, ijtimoiy tizim sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim tizimi iste'molchining ta'lim modelini tanlashi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi kerak (tashkiliy, kadrlar, o'quv-metodik, axborot va h.k.). Ta'lim olishning eng boshidan o'quvchi-iste'molchi tanlash sharoitiga ega bo'lishi va o'z tanlovi uchun javobgarlikka ega bo'lishi kerak. Tanlash vaziyati doimo o'quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlari, standartlar talablari o'rtasidagi ziddiyatlarda bo'lishi kerak.

Ta'lim xizmatlari sohasidagi savodli siyosatni qurish uchun davlat ta'lim standartlari hamda o'quvchilar va ota-onalarning talablariga mos yo'nalganlik zarurdir.

Ammo, ta'lim muassasasi raqobat sharoitlarida ta'lim xizmatlari iste'molchilariga o'zlarida o'sib boruvchi madaniyat talablarni qondirishning va individual o'ziga xosliklarini amalga oshirish yangi imkoniyatlarini ochishlariga imkon beradigan ta'lim xizmatlarini izlash holatida bo'ladilar. Shu sababli, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning yangi g'oyalarini, o'quvchilarning millat, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishdagi rivojlanishining zamonaviy darajasiga olib chiqadigan yangi imkoniyatlarni izlash amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi tomonidan o'ta muhim vazifa – jamiyatni isloh etishning asosiy omili sifatida shaxsning shakllanishi uchun sharoitlarni yaratish hal etiladi. Buning uchun maktabning pedagogik tizimida o'zgarishlar – innovatsiyalar zarurdir.

Jamiyatimizning murakkab va ziddiyatli yangilanishi, hayot faoliyatining barcha sohalarining bebarqarorlik sharoitlarida rivojlanmay turib saqlana olmaydigan ta'lim tizimining omon qolishi masalasi yuzaga keladi. Ta'lim sohasidagi islohotlarning zarurati to'g'risida so'nggi yillardagi innovatsion jarayonlarning jadal rivojlanishidan guvohlik beradi.

Ta'lim doimo novatorlik, pedagogik izlanish. Tajriba-sinov ishlari, innovatsion jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan.

A.F.Prisyajnaya quyidagi ta'rifni beradi: «Yangilik kiritish (innovatsiya) – bu muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, qishloq, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan barqaror elementlarni kiritadigan maqsadga yo'naltirilgan o'lchov» [55]. Mazkur ta'rif asosida S.D.Polyakov pedagogik innovatsiyalarni tarqatishning modelini yaratgan bo'lib, u bizning fikrimizcha, innovatsiyalarning mohiyatini to'liqroq va ixcham ochib beradi [56; 2-7-b.].

A.F.Prisyajnaya, S.D.Polyakov tomonidan berilgan ta'rifni o'rganib quyidagi xulosaga keladi:

birinchidan, yangilikni kiritish shu onda yuz bermaydi, bu jarayondir;

ikkinchidan, bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emas, uning “mualliflari” mavjud bo'lib, ular maqsadni – mazkur o'zgarishlari kiritishni ko'zlaydilar (yangilik mualliflarini odatda «innovatorlar» deb ataydilar, shunga ko'ra yangilikni kiritish ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari to'g'risidagi so'z yuritish mumkin);

uchinchidan, o'zgarish muayyan, u yoki bu darajada tashkil etilgan insonlar jamiyatiga kiritiladi;

to'rtinchidan, bu jamiyatdagi yangi barqaror elementlar: foydalaniladigan buyumlar, faoliyat va muloqot me'yorlari, maqsadlar, qadriyatlar, muhitning yangilanishi va boshqalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Agar innovatsiya – jarayon bo'lsa, unda muayyan bosqichlar bo'yicha yuzaga kelishi, rivojlanishi va oxir-oqibatda natijasi mavjud bo'ladi. Innovatikada bu “yangilik kiritishning hayotiy davri” tushunchasida aks etadi. “Hayot davri”ga

yangilikning paydo bo'lishi bosqichlari, uni muayyan ob'ektda o'zlashtirish, diffuziyalar (boshqa ob'ektlarga tarqatish), yangilikni an'anaviyga aylantirish bosqichlari kiritiladi.

Albatta, innovatsion jarayon ixtiyoriy bosqichda to'xtab qolishi mumkin. Eng muhimi esa, dastlabki yangilikni tanib bo'lmas darajada o'zgartirishi (rivojlantirishi, deformasiyalashi) mumkin [181].

Turli olimlar innovatsiyalarning turli miqdorini ajratadilar. Masalan, estoniyalik yangiliklarning va ijtimoiy sohadagi tajribalarning nazariyotchisi Yulo Vooglayd yangiliklarni ajratishning 25 ta asoslarini taklif qilgan. Ular orasida quyidagilar mavjud: uzoq muddatli va qisqa muddatli, kichik guruhlariga va umuman jamiyatga mo'ljallangan, radikal va islohotlarga oid, mehnatdagi va xordiqdagi, avtoritar va liberal, tashabbuskor va bosim ostidagi va boshqalar [181].

Pedagogika uchun, bizning firimizga e'tiborlilari quyidagilar hisoblanadi: yangining eskiga, avvalgi faoliyat shakllariga radikalligi va munosabati. Innovatsiyalarni radikalligi bo'yicha taqsimlashda ko'pincha uch turini ajratadilar: radikal, aralash va modifikasiyalangan (boshqacha aytganda – takomillashtiruvchi)

Innovatsiyalarning turlari

Innovatsiya turlari	Innovatsiyalarning mazmun mohiyati
---------------------	------------------------------------

1.Radikal innovatsiya	kompyuter texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini qayta qurishga urinishlardir. Ikkinchi misol (ta'limni boshqarish sohasida) – maktablarni nazoratsiz, “ishonch asosida” ishlashga o'tkazishdir
-----------------------	--

2.Aralash innovatsiya	avval ma'lum bo'lgan elementlarni yangiga birlashtirish (ma'lum misollarning, ish usullarini noodatiy birlashtirish kabi darsning yangi turi)
-----------------------	---

3.Modifikasiyalangan innovatsiya	bu mavjudni to'liq o'zgartirmagan holda yaxshilash, to'ldirishdir. Bunday o'zgarishlarga «innovatsiya» so'zi qo'llanilishi mos kelmaydi.
----------------------------------	--

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligi kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy tayanch

bilimlarining me'yoriy, tizimli darajalarini blok modulli texnologiyalarning kognitiv va kompensator strategiyalarni innovatsion ta'lim muhitini modellashtirish asosida rivojlantirilgan. Avvalgilarga nisbatan yangilik kiritishni quyidagi guruhlariga ajratadilar: o'rnini to'ldiruvchi, ochib beruvchi, rad etuvchi va eng taajublisi – retroyangiliklar [181]. An'anaviy nazorat ishini kompyuter tekshiruvchi bilan almashtirish – o'rnini to'ldiruvchi innovatsiyaga misoldir. «Insonshunoslik» yangi fani – bu yangi faoliyat sohasini ochib beruvchi, yaratuvchi yangilikdir. Uy vazifalarini bekor qilish – rad etuvchi, yakunlovchi innovatsiyalarga misol. Nihoyat, retroyangiliklar – eski, unutilgan, yana dolzarb bo'lib qolgan – o'tgan asr yigirmanchi yillarida har doimga to'xtatilgan deb hisoblangan, darslarda guruhli ish shakllarining paydo bo'lishi; namuna sifatida o'tgan asr boshlaridagi gimnaziyalarga yo'naltirilgan, zamonaviy gimnaziylar.

Biz ko'p sonli innovatsiyalarni bilish yangiliklarni kiritishning maqsadlarini, uning imkoniyatlarini, innovatsion jarayonni kengaytirish xususiyatlarini yaxshiroq anglashga imkon beradi deb hisoblaymiz. Masalan, radikal yangilikni o'zlashtirish va tarqatishning qiyinchiliklari modifikasiyalashtirilgan yangiliklarni joriy etishdan ko'ra qiyinroq bo'lishini kutish mumkin (bahosiz o'qitishni o'zlashtirish, masalan, baholashning besh ballik tizimidan etti ballik tizimiga o'tishdan ancha og'irroqdir).

Hozirgi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarni tushunish uchun metodologik asos bo'lib tizimli yondashuv hisoblanadi. U tizimlarning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri mexanizmini ochib beradi, asosiy vazifani – ta'lim sifatini boshqarishga radikal ta'sir etishning ijobiy omili sifatidagi tizimli sifatlardan foydalanishni amalga oshirish maqsadida tizimlarning manbalari va cheklovchilarining rivojlanishini ko'rsatadi.

V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra: «tizimli yondashuv – bu tizimli ob'ektlar, ularning amal qilishi va rivojlanishi qonunlarining tuzilishining to'liq tavsifi bilan bog'liq yondashuv» [97; 14-b.].

Tizimli yondashuv kirish bilan – maqsadlar, vazifalar; chiqish bilan – ish natijalari, shuningdek, jamoa, ota-onalar, o'quvchilar, tashqi muhit bilan qayta

aloqalar bilan tizimni nazarda tutadi. Innovatsion jarayonning mohiyatini, ta'lim tizimini sifatli yangilashga uning ta'sirini keyingi ochib berilishi uchun uning chegaralarini, "pedagogik tizim" tushunchasi bilan bog'liqligini aniq tasavvur qilish kerak. Pedagogik tizim eng yuqori tartibdagi tizim sifatida ta'lim tizimiga kirishi umumtan olingan (O.E.Lebedev, A.I. Subetto va boshqalar).

B.S.Gershunskiy pedagogik tizimni pedagogik ta'sirning ob'ekti, sub'ekti, mazmuni, vositalari, maqsadi, natijalari sifatidagi elementlarining o'zaro aloqasi sifatida ta'riflagan [110].

B.C.Lazarev boshqarishning pedagogik tizimini "maxsus tarzda bir-biri bilan bog'langan kirish, o'quv-tarbiya jarayoni va ta'lim natijalarining insoniy, moddiy-texnik, axborot, me'yoriy-huquqiy va boshqa komponentlari" sifatida qaraydi [142].

Zamonaviy maktabning pedagogik tizimi va innovatsion jarayonini o'zaro bog'liq ko'rib chiqish nuqtai nazaridan, tizimli yondashuv, avvalo, tizimning integrativ xususiyatlarini, ya'ni umumiyliги uning sifatini belgilaydigan sifatlarni (B.C.Lazarev, T.I.Shamova, P.I.Tretyakov, N.P.Kapustin), ko'rib chiqishga yo'naltirishini hisobga olish muhimdir. D.M.Polev va D.Sh.Matros bizning tadqiqot ishimiz uchun juda muhim bo'lgan fikrni keltiradilar, unga asosan, ixtiyoriy ob'ekt, jarayonni ko'rib chiqishning tizimlilikini uni yangi sifatli holatga ko'chirish bo'yicha xatti-harakatlarning maqsadga yo'nalganligini ta'minlaydi [141, 152].

Mazkur qoida innovatsion jarayonga to'liq taalluqli bo'lib, uning maktabdagi ta'lim sifatiga ta'siri borasidagi samaradorligi ko'p jihatdan uning maqsadlarining tizimli xususiyatiga bog'liqdir. Biz, maqsad maktabda ta'limning innovatsion pedagogik tizimi sifatini yaxshilashni optimallashtirish maqsadi bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. Sifatni optimallashtirish ostida biz, ma'lum ta'lim muhiti sharoitlarida ta'limning maksimal mumkin bo'lgan sifatiga erishishni tushunamiz.

«Pedagogik tizim» va «innovatsion tizim» tushunchalarining bog'liqligini tushunishda muayyan qiyinchiliklar mavjuddir.

B.C.Lazarev maktabning innovatsion tizimini quyidagicha ta'riflaydi «...pedagogik tizimga yangiliklarni kiritishni ta'minlovchilarning barchasi, ya'ni

innovatsion jarayon», pedagogik tizimni esa – «ishlashini ta'minlovchilarning barchasi» [142].

Bizning fikrimizcha, innovatsion tizim, shuningdek, pedagogik tizim kabi ishlashini ham ta'minlaydi, ammo boshqa komponentlarga ega bo'ladi. A.G.Porshneva, Z.P.Rumyanseva, N.A.Solomatin barqaror va innovatsion jarayonlarning xususiyatlarini o'nta ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qiladilar:

- yakuniy maqsad;
- maqsadga erishish yo'llari;
- maqsadga erishishdagi xatar;
- jarayon turi;
- yaxlit sifatida boshqarilishi;
- rejalashtirish imkoniyati;
- rejalar;
- uning doirasida jarayon amalga oshirilayotgan tizimni rivojlantirish;
- jarayon ishtirokchilari manfaatlarining mos tushishi darajasi;
- mas'uliyat sohalarining taqsimlanishi;
- tashkil etish shakllari [187].

Keltirilgan ko'rsatkichlar, bir tomondan, boshqarish toifalari, boshqa tomondan esa, innovatsion tizimning komponentlari hisoblanadi. Biz barqaror va innovatsion jarayonlarning taqqoslanishining mazkur sxemasini ayrim aniqlashtirishlar bilan qabul qilish mumkin deb hisoblaymiz.

Mualliflar ko'rsatib o'tganlaridek, barqaror jarayonda qisqa muddatli rejalashtirish, innovatsion jarayonda esa – tuzatishlar kiritish imkoniyati bilan uzoq muddatli rejalashtirish mumkin. Biz barqaror jarayon, shuningdek, uzoq muddatli istiqbol uchun rejalashtiriladi, deb hisoblaymiz. Jarayon ishtirokchilarining manfaatlarining mos tushishishi darajasi, bizning fikrimizcha, jarayon turiga bog'liq bo'lmaydi.

Bizning tadqiqot ishimizda jarayon ishtirokchilari qiziqishlarining mos tushishi darajasiga bog'liqlik o'zgaruvchan kattalik ekanligini aniqladik. Uning

barqaror yoki an'anaviy jarayonda namoyon bo'lish darajasi muayyan vaqt chegaralariga ega, mazkur davr hamda ichki va tashqi muhitning o'zgaruvchi omillariga ko'ra istiqboldagi aniq maqsadlarga bog'liq.

Tadqiqot ishimiz doirasida biz innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ta'lim muhitining xususiyatlari inobatga olinmasligi mumkin emasligi to'g'risidagi xulosaga keldik. Turli, jumladan, falsafiy jihatlardan ta'lim muhiti tushunchasini tadqiq etish, shuningdek, ta'lim muhitida kechadigan jarayonlarni modellashtirish, loyihalash, ekspertizadan o'tkazish va kompleks tahlil qilinishi I.S.Yakimanskaya va boshqalarning ishlarida ifodalangan. I.S.Yakimanskaya ta'kidlaganidek, inson muhiti sifatida ta'lim muhiti to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlar ijtimoiy ekologik va psixologiyadagi qabul qilingan tushunchalarning sintezi asosida shakllangan. So'nggi o'n yillikda rivojlangan ijtimoiy ekologiya "inson va uning muhiti o'rtasidagi o'ziga xos aloqalar"ni o'rganadi [237].

N.B.Krilova muhit deb "insonni o'rab turgan ijtimoiy muhitni", "individdning bevosita faolligi, uning yaqin rivojlanishi va xatti-harakati" sohasini hisoblaydi [41; 100-b.].

V.A.Levin ta'lim muhitini "muayyan namuna bo'yicha shaxsni maxsus tashkil etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bilan" aloqadorlikda o'rganadi va ta'lim muhitiga "belgilangan namuna bo'yicha shaxsni shakllantirishga ta'sirlar va sharoitlar, shuningdek, uning rivojlanishi uchun ijtimoiy hamda fazo-predmetli muhitdagi mavjud imkoniyatlar tizimi" sifatida ta'rif beradi.

Tadqiqot ishimiz uchun A.S.Galishevaning "ijtimoiy-madaniy muhit ta'lim jarayoni sub'ektlari o'zaro munosabatlari va faoliyatlarining moddiy, psixologik va mazmunli imkoniyatlariga ega bo'lib, ta'lim sifatining asosiy omili bo'lib xizmat qilishi", "boshqaruv esa, ta'lim tizimining har bir elementida sifatni tashkil etishni (menedjment) ifodalaydi" bunda "tizimning har bir elementi ijtimoiy-madaniy muhitning xususiyati, uning sifatining aktual holati sifatida belgilanadi, mazkur "holatlarning" o'zaro bog'liqligi esa ta'limning tizimli xususiyatini ifodalashi"

to'g'risidagi xulosasini muhim deb hisoblaymiz [91; 38-39-b.].

A.S.Galisheva tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'lim sifati tizimi" sxemasida ta'limning ijtimoiy-madaniy muhitidagi tizimli xususiyatlari ta'kidlanadi, ular quyidagi o'zaro bog'liq belgilangan elementlar ko'rinishida ifodalanadi: ta'limning hujjatlashtirilgan modeli, pedagoglar, ota-onalar munosabatlari tizimi, motivasiya tizimi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimi.

Biz, ko'pchilik tadqiqotchilar kabi ta'lim muhitini kengroq ma'noda ta'lim tizimlari, ularning elementlari, ta'lim materiallari va ta'lim jarayonlari sub'ektlarining o'zaro aloqasi sohasi sifatida tushunish mumkin, deb hisoblaymiz. Tadqiqot ishimizda ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion o'zgarishlar muvaffaqiyatli strategiyalarini loyihalash faqatgina muayyan ijtimoiy-madaniy muhit – hudud, shahar, qishloq, tuman ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlarini batafsil tahlildan so'ng mumkinligi to'g'risidagi xulosaga keldik.

Ta'lim muhiti xususiyatlari tahlilining zarurati hozirgi vaqtda, milliy ta'limiy muhitda ahamiyatli o'zgarishlar sodir bo'lganligi, barqarorlikning ustun xususiyati noaniqlik xususiyatiga almashganligiga asoslanadi. Ta'lim muhitining noaniqligiga boshqa o'zaro bog'liq muhitlardagi rivojlanish omillari ta'sir ko'rsatadi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqalar. O'zbekiston ta'lim muhiti noaniqligining ta'sir etuvchi omili ta'lim sifatida va darajasiga o'zgaruvchan ijtimoiy va davlat ehtiyojlari hamda ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalashning uzoq muddatli jarayoni hisoblanadi.

B.C.Lazarev ta'kidlaganidek, «har bir maktab ko'pgina aloqalari bilan atrof-muhit bilan bog'liq va shuning uchun tashqi sharoitlardagi o'zgarishlar uning hayotiga ta'sir etmasligi mumkin emas» [142].

A.S.Asmolovning fikricha: «Asosiysi – bu ta'limni barcha savollarga oldindan javoblari bo'lgan namunaviy masalalarni echishga yo'naltirish emas, balki "ta'lim noaniqlik olamida yashashi kerak" deb aniq aytish kerak» [22; 4-b.]. O'zgarishlarning sifatli tavsiflari ko'p jihatdan ta'lim muhitida amalga oshiriladigan innovatsion jarayonlarning tizimli xususiyatiga hamda o'zgarishlarning ijtimoiy

ehtiyojlarga muvofiqligiga bog‘liq. Shu sababli barcha darajalarda adaptiv ta'lim muhitini va mos boshqaruv tizimini yaratish talab etiladi.

Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, ta'lim muassasalari sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni turlicha qabul qiladilar va shunga asosan moslashadilar. Moslashish xususiyatida muhim tavsif ta'lim muhitidagi o‘zgarishlar boshlanishidan ta'lim muassasasidagi o‘zgarishlarning boshlanishigacha vaqt ko‘rsatkichi sifatidagi reaktivlik hisoblanadi. Tadqiqot ishimizda biz ta'lim muhitidagi o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlari bir tomondan innovatsion faoliyatni faollashtirish imkoniyatlarini, boshqa tomondan esa boshqaruv faoliyatidagi yangi yondashuvlarni, B.C.Lazarev belgilaganidek – “faol moslashish strategiyalari”ni amalga oshirishni talab etadi [40]. Xususiyatlarni yo‘naltirilgan o‘zgartirish orqali faol moslashish strategiyasi “muhit-sub'ekt” tizimida innovatsion ta'sirni kuchaytiradi. Aksincha, yangilik – ta'lim muhiti tizimidagi nomuvofiqlik vaziyatida ko‘pincha “to‘siq” holati kuzatiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar innovatsiyalarning maktab ta'lim muhitiga ta'siri darajasini tahlil qilib, yangiliklarning maktab hayot tarzini, unda amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni sifatida tubdan qayta o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan rolini ta'kidlaydilar.

Innovatsion jarayonlarning ta'sirini baholashda inobatga olinishi zarur bo‘lgan jihatlardan biri DTS bilan bog‘lash hisoblanadi. DTSda ta'lim darajasiga minimal talablarga ega bo‘lib, bunda innovatsiyalar ta'lim faoliyatining sifatini optimallashtirish va oshirish xususiyatiga egadir. Tadqiqot ishimizning boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion jarayonda tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqildi

Ta'lim jarayonida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi

Bu mexanizmning maqsadi yuqori darajali tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi tayyorlashdan iborat. Mexanizm quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

birinchisi, ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirish ta'lim natijasiga urg‘u beradigan yondashuvdir. Bunda ta'lim natijasi o‘zlashtirilgan axborotlar

yig'indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo'ladi;

ikkinchisi, tayanch kompetensiyalar hozirgi kunda innovatsiyalarni tadbiq etish uchun kreativlikka bog'liq bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan tayanch kompetentli o'qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir;

uchinchisi, tayanch kompetensiyalarni «Ona tili fani tarmog'ida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish» fani maxsus kursi asosida rivojlantirish jarayoni olib boriladi.

Amaldagi innovatsiyalar vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotadi, ammo samarali xususiyatlarini saqlab, an'anaviy jarayonning bir qismiga aylanadi. Innovatsiyalarning mazkur sifati ta'lim standartining minimal talablarini oshirishga va oqibatda vaqt davomida ta'lim sifati darajasini jadal o'zgartirishga imkon beradi. Bizning tadqiqot ishimizda innovatsion faoliyat optimal samaradorlikka ta'limiy faoliyatning barcha tomonlarini qamrab oluvchi yangiliklarni joriy etishning tizimli xarakterida erishishini aniqladik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muammosining nazariy tadqiq etish natijasida biz tomonimizdan vazifalar hal etildi va quyidagi natijalar olindi:

1.O'rganilayotgan muammo bo'yicha psixologik, pedagogik, metodologik adabiyotlar tahlili, zamonaviy ta'lim amaliyoti holatini o'rganish asosida innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari aniqlandi. O'tkazilgan tadqiqot o'rganilayotgan muammoning ahamiyatini tasdiqladi, uning zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida etarlicha o'rganilmaganligini ko'rsatdi.

2.Ilmiy adabiyotlar tahlili «boshlang'ich sinf o'quvchilari tayanch kompetensiyalari» tushunchasining mazmunini ochib berishga imkon berdi, u biz tomonimizdan o'quvchining umumlashgan xatti-harakatlari majmui, ular bilan bog'liq, sub'ektlarning yangi bilim, ko'nikma, kompetentliklarni mustaqil o'zlashtirishlari, yangi ijtimoiy tajribani ongli, faol egallash, o'z-o'zini

rivojlantirish, takomillashtirish qobiliyatini ta'minlovchi o'quv ishlari ko'nikma va malakalari sifatida tushuniladi.

3. Tayanch kompetensiyalarni me'yor chegaralaridan chiquvchi, cheklanmagan, kasbiy faoliyatni tubdan yangi sifat darajasiga olib chiquvchi prinsipial yangi faoliyat namunalari asosida shakllantirish zarur.

4. Pedagoglar innovatsion faoliyati maktab ishi amaliyotiga ta'lim muassasalari rivojlanishining ajralmas tashkil etuvchisi hisoblanadi va pedagoglarni innovatsion faoliyatga jalb etish hamda ta'lim muassasasining faoliyati va rivojlanishi monitoringi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan rahbar xatti-harakatlarining algoritmini ifodalovchi boshqaruv dasturidan iborat bo'lgan, pedagoglar innovatsion faoliyatini boshqarish texnologiyalarini belgilash sharti bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

§ 2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ jarayoni

Zamonaviy sharoitlarda iinnovatsion faoliyat sifat jihatidan yangi mazmun bilan boyitilmoqda. Ammo, amaliyotning ko'rsatishicha, barcha ta'lim muassasalari ham o'zgargan sharoitlarda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshira olmaydilar. Yuzaga kelgan o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar strategiyalari, hamkorlik, o'zaro hurmat tamoyillari asosidagi yangi munosabatlarni qurishni bilmaslik va ba'zan istamaslik, ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida innovatsion yondashuv imkoniyatlarini anglamaslik halal bermoqda.

Bularning barchasi, innovatsion pedagogik faoliyatning ahamiyati to'g'risidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirish zaruratini yuzaga keltiradi. Maktabda innovatsion faoliyatni faollashtirish vazifasini amaliy hal etishning muvaffaqiyati innovatsion tashkiliy-pedagogik faoliyatning ko'rsatkichlari qanchalik aniq ifodalanishiga bog'liq. Mazkur vazifani hal etish uchun biz maktabda o'quv-tarbiya

jarayonini modellashtirish masalasiga murojaat etishni zarur deb hisobladik.

Model tushunchasini aniqlashda biz model asl nusxa tizimining ayrim ahamiyatli xususiyatlarini ifodalaydigan ob'ektlar tizimi ekanligi to'g'risidagi qoidadan kelib chiqdik. Ixtiyoriy model asl nusxani soddalashtiradi va o'rganilayotgan tizimning aksi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli o'rganilayotgan jarayonning tayanch komponentlarini va uning samarali amal qilishini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar majmuini yagona tizimda qamrab oladigan tarzda ishlab chiqilishi va loyihalanishi lozim .

Innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli shunday tarzda ishlab chiqilgan va loyihalanganki, biz tadqiq etayotgan jarayonning tayanch komponentlarini hamda uning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar majmuini yagona tizimda qamrab olgan. Biz tomonimizdan taklif etilgan modelning tarkibiga kiruvchi komponentlarni ifodalab o'tamiz.

Boshlang'ich tizim hosil qiluvchi komponenti biz innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish sifatida ifodalagan maqsad hisoblanadi. Maqsadli bo'limni tavsiflashda, modelni amalga oshirish yo'li bilan erishilishi kerak bo'lgan maqsad hozirgi vaqtda mustaqil ta'lim olishga va o'z-o'zini amalga oshirishga qobiliyatli o'quvchilarni rivojlantirish hisoblangan ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshirilishi ta'kidlash lozim. Bunda mazkur maqsadga erishishning natijasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalar shakllanganligi mavjud darajasidan yanada yuqori darajasiga oshirish hisoblanib, bu o'z navbatida, modelni amalga oshirishning asosiy natijasi hisoblanadi.

Mazkur maqsadni belgilash yagona ta'lim muhiti – Boloniya tashkilotining tuzilishi bilan bog'liq, zamonaviy maktabning rivojlanish tartibiga o'tishi bilan bog'liq. Ishlab chiqilgan model ifodalangan. Qo'yilgan maqsadning tadqiqot

ishimizda prinsipial echilishi qator vazifalarni hal etish bilan ta'minlanadi:

o'quvchilarda ta'limga motivatsion-qadriyatli munosabatni rivojlantirish va ularning baholash faoliyatlarini rag'batlantirish;

o'quvchilarda yangi bilimlar va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish qobiliyatini, shuningdek, shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini shakllantirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv hamkorligi va o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasida hamkorlikdagi samarali baholash faoliyatini amalga oshirish;

o'quvchilarda mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va boshqa sifatlarni tarbiyalash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi antropologik yondashuvni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonidagi hamkorlik, modulli, loyihalovchi, rivojlantiruvchi, faoliyatli pedagogik ta'sir vositalari tarkibini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Birinchi vazifani maqsadga muvofiq hal etishni biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limga motivatsion-qadriyatli munosabatni rivojlantirish va ularning baholash faoliyatlarini rag'batlantirishda ko'ramiz. Ta'limga motivatsion-qadriyatli munosabatni rivojlantirish ostida biz, o'quvchini ichki ehtiyojlari va tashqi sharoitlar (motivlar)ga mos ravishda faol o'quv faoliyatiga undovchi hodisalar va shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy yuzaga kelgan tushunchalar majmuini tushunamiz.

Ta'limga motivatsion-qadriyatli munosabatning mazmuni o'quvchining aniq motivlari va qadriyatli yo'nalganligini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarining asosiy motivlari sifatida quyidagilar qabul qilingan: bilishga oid faoliyat ehtiyojlarini, emosional kechinmalarni qondirish va o'z-o'zini ifodalash.

O'quvchilarning motivatsiyalarini rag'batlantirish uchun darslarni loyihalashtirishga, o'quvchilarni baholashga innovatsion yondashuv ahamiyatli imkoniyatga egadir. Mazkur yangilikda baholashning rag'batlantiruvchi vazifasi kuchayishi e'tiborga loyiq bo'lib, u ta'lim olishga motivasiyaning o'sishiga ko'maklashadi, o'z-o'ziga bahoni oshiradi, o'quv materialini samarali

o'zlashtirishga ko'maklashadi, o'quvchiga o'zining bilimlardagi ilgariilashi dinamikasini kuzatishiga imkon beradi .

O'quvchilarning motivatsiyalarini rag'batlantirish uchun darslarni loyihalashtirishga tavsiyalar

Yondashuvlar:

- shaxsiy-faoliyatli;

- tizimli;

- kompetentli,

- tushunchali-sinergetik Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik sharoitlari:

- o'quvchilarning o'quv muvaffaqiyatlariga erishishlarining uzluksiz motivasiyasi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini mazmunli-metodik ta'minlashni amalga oshirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining innovatsion faoliyatda sub'ektlilik qarashlari shakllanishi va o'zaro munosabatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalari bu o'quvchining umumlashgan xatti-harakatlari maj-mui hamda ular bilan bog'liq, sub'ektlilikning yangi bilim, ko'nima va kompetentliklarni mustaqil o'zlashtirishlari, yangi ijtimoiy tajribani ongli va faol egallash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini ta'minlovchi o'quv ishlari ko'nikma va malakalari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining innovatsion faoliyatlari – atrofdagi voqelikni faol bilishga, sabab-oqibatli aloqalarni anglash va topishga, mantiq, tafakkurni, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga undovchi integrasiyalangan darslar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining loyihali-tadqiqotchilik faoliyatlari, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish

Yo'naltiruvchi bosqich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodlari va usullari:

- bilishga oid faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;
- ta'lim olishga intilishi va motivasii
- nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

Shakllantiruvchi bosqich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish shakllari:

integrasiyalangan darslar, individual konsultatsiyalar, mustaqil ish, juftliklarda va guruhlarda ishlash, o'yin, trening shaklidagi darslar va b.q.

Refleksiv bosqich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish vositalari:

- o'quv yutuqlarini baholashning innovatsion tizimi;
- «Yutuqlar darajasi» innovatsion dasturi, shaxsiy kundaliklar, o'quv qo'llanmalari, ishchi daftarlar, tarqatma material va b.q.;
- murakkablik darajalari bo'yicha tabaqalashgan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini tekshirish va o'z-o'zini baholashga, tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar

Tayanch kompetensiyalar shakllanganligi mezonlari

shaxsiy;

tartibga soluvchi;

bilishga oid;

Tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajalari

kommunikativ

yuqori;

o'rta;

past

Bundan tashqari, darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etish va o'tkazishga innovatsion yondashuv, o'quvchilarni baholash faoliyatiga undash bilimlar sifatini baholashning faqat ijobiy mezonni qo'llash asosini bilish yo'li bo'yicha borishni

ko'rsatish orqali amalga oshirilib, bu bolalarga o'zlarini muvaffaqiyatli his qilishlariga imkon beradi. Ularga yuqori o'z-o'zlariga bahoni shakllantiradi, mustaqilliklari, o'quv faoliyatiga qiziqishlari, tashabbuskorliklari, ta'lim olish motivasiyalari oshiradi va o'quvchilarni ular erisha oladigan ma'lum natijaga yo'naltiradi.

O'quvchilarning o'quv-bilishga oid faoliyatlarini rag'batlantirishning muhim omili, pedagog tomonidan mumkin bo'lgan baholash mulohazalarining butun ko'p qirraliligidan foydalanish hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarda tayanch kompetensiyalarni, shuningdek, shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini mustaqil o'zlashtirishga qobiliyatlarini shakllantirish vazifasini hal etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olishga munosabatlari muammosi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur yo'nalishdagi ishlarning etakchi prinsipi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uni faol faoliyatga undovchi ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni shakllantirish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini samarali tashkil etish uchun eng optimal sharoitlar, avvalo, rasional loyihalashtirilgan darsda yaratilishi ma'lum bo'lib, unda boshidan oxirigacha barchasi o'quvchilarning bilishga oid xatti-harakatlarini faollashtirish va oqilona tartibga solishga ko'maklashadi, barchasi ularni mustaqillikni namoyon etishga undaydi.

O'quvchilarda o'z xatti-harakatlarini mustaqil loyihalashtirish mazkur jarayonga innovatsion yondashuv orqali erishilishi mumkin, ya'ni ularda umumlashgan xatti-harakatlar usullarini ishlab chiqish (shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid, kommunikativ o'quv xatti-harakatlari). Bunda hal qiluvchi jihat boshlang'ich sinf o'quvchilarida rejalashtirish, nazorat, baholash ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'lishi kerak, chunki aynan ular o'quv jarayonida uning mustaqilligini kuchaytirish uchun asosni yaratadi, o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etish, bolaning o'z o'quv-xatti-harakatlarini tartibga solish uchun tayyorgarlikni shakllantiradi. O'quvchi o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish, baholash, nazorat

qilishga faol yondashuvni faqatgina o'quv faoliyatining sub'ekti vaziyatida egallashi mumkin. Bu o'quvchi tomonidan nazorat va baholashning mazmuni uning o'quv fani doirasidagi mustaqil faoliyati usullari va natijalari tashkil etishi bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq ishlash sharti bilan, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qobiliyatni, shuningdek, shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini shakllantirish vazifasi o'quv jarayonida to'liq hal etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv hamkorligi va o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasida hamkorlikdagi samarali baholash faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutuvchi uchinchi vazifani to'g'ri hal etishga o'quvchining (o'quvchilarning) o'qituvchi bilan baholashga oid o'zaro aloqalarini tashkil etish ko'maklashadi.

Baholashga oid hamkorlik – bu bolalarni sinfdoshlari va o'qituvchi bilan baholashga oid o'zaro aloqalariga asoslangan o'quv faoliyatining alohida shakli, munosabatlarning ma'lum darajasi bo'lib, bunda o'quvchilarning shaxsiy tashabbuskorliklari maksimal darajada namoyon bo'lida, o'zaro axborot almashish yuzaga keladi. Ya'ni, baholashga oid hamkorlik o'ziga xos psixologik xususiyatlarni tavsiflaydi, ular ikkita asosiy jihatlarida: o'quvchilarning bir-birlari va o'qituvchi bilan baholashga oid hamkorliklarida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning bir-birlari va o'qituvchi bilan intellektual va ijtimoiy dialoglari shakli sifatidagi baholashga oid hamkorlikni rivojlantirish ahamiyatli shaxsiy ehtiyoj va bolaning shaxsiy tashabbusi, hamkorlikdagi xatti-harakatlarning maksimal kelishilganligi, refleksiv-mazmunli tahlil malakalarini erkin egallaganlik, bir necha qarashlarni muvofiqlashtirishning rivojlangan qobiliyati, hamkorlikdagi faoliyat samaradorlining yuqori darajasi ("o'quvchi-o'quvchi sohasida") va teng muloqot, o'zaro aloqa mazmunining faoliyatning umumiy vazifasiga to'liq mosligi, tanqidiy fikrlashning rivojlangan ko'nikmasi, hamkorlikdagi baholash faoliyatidan individualga osonlik bilan o'tish ("o'quvchi-o'qituvchi") bilan tavsiflanadi. Mazkur

daraja o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirishga intellektual va shaxsiy ehtiyojning yuzaga kelishi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Shu tariqa, o'quv hamkorligi va hamkorlikdagi samarali baholash faoliyati g'oyasi ta'lim oluvchilarni muvaffaqiyatga yo'naltiradi, bu esa o'quv materialini tizimda o'rganish, o'quvchilarni o'quv faoliyati maqsadiga yo'naltirish, o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash tizimini belgilash imkonini beradi hamda eng muhimi, o'quv o'zaro hamkorlikka ko'ra o'quvchilar ta'lim olishni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va boshqa sifatlarni tarbiyalashni ta'minlovchi asosiy jihat pedagog tomonidan ta'lim oluvchilar o'quv mehnatlarining barcha xususiyatlarini aniq va tizimli hisobga olishi hisoblanadi. Bu jihatdan pedagog o'quvchining bilishga oid faoliyatining turli sohalari muvaffaqiyatlaridagi o'zgarishlar va dinamikasini kuzatishi, har bir o'quvchilar javoblarida biror-bir o'ziga xoslikni topishi muhim hisoblanadi.

Mazkur maqsadda zamonaviy ta'lim amaliyotiga o'quvchilarning o'quv maqsadlarini baholashning o'zgacha tizimini joriy etish zarur bo'lib, u 5-ballik shkalaga nisbatan, yanada mazmunli, ob'ektiv, invariant, integral va tabaqalashgan hisoblanadi. Yangi shkala turli darajali (asosiy, orttirilgan va chuqurlashtirilgan) ta'lim sharoitlarida bolalarning individual sifatlari va shaxsiy xususiyatlari, miqdor, sifat ko'rsatkichlari, o'quv faoliyatining barcha turlari samaradorligini hisobga oladi.

Bundan tashqari, biz darslarda har bir o'quv fani bo'yicha talablar jadvalidan (o'qituvchi jurnalida, o'quvchi kundaligida ilova) foydalanishda ko'ramiz, unda o'qituvchi o'quvchi tomonidan ma'lum o'quv vazifasi (topshirig'i)ni echishida namoyon etgan dasturiy ko'nikmasi uchun baholar (yoki «+») qo'yiladi.

Talablar jadvali o'qituvchiga va ota-onalarga har bir o'quvchining haqiqiy muvaffaqiyat va yutuqlarini, ya'ni o'quvchi qaysi dasturiy talablarni egallaganligi, qaysi ko'nikmalarni namoyon eta olmaganligini – u ishlashi kerak bo'lgan sohani kuzatish imkonini beradi. Talablar jadvalida qo'yilgan baholarga umumiy qarash ish

dinamikasi va har bir o'quvchining ta'lim olishi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelining nazariy-metodologik komponenti o'z ichiga boshlang'ich nazariy qoidalar, innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga metodologik yondashuvlar va prinsiplarni qamrab oladi. Shuningdek, mazkur bo'lim innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar majmuini shakllantirish samaradorligini ta'minlovchi hamda tadqiq etilayotgan jarayonning mazmuni, tashkil etilishi va samaradorligini belgilovchi pedagogik sharoitlar majmuini hisobga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli quyidagi qoidalarni inobatga olib tavsiya etilgan: shaxsiy-faoliyatli yondashuvni, unda ta'lim jarayonini o'quvchining "... hayot faoliyatining umumiy mazmunida – shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun qiziqishlar, hayotiy rejalar, qadriyatli yo'nalganlik, ta'lim mazmunini tushunishga yo'nalganlik"dagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida tushuniladi (I.A.Zimnyaya); o'quvchining haqiqiy hayot faoliyatida ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishi asosida yuzaga kelgan o'ziga xos va betakror sub'ektiv tajribasining integrasiyasiga alohida e'tibor qaratadigan; o'quvchining olamni bilish, ta'lim olish, hamkorlik, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati va tayyorgarligini rivojlantirish uchun bilim, ko'nikma, malakalarni egallash uchun keng imkoniyatlarni ta'minlovchi shaxsning barkamol rivojlanishi ko'rsatkichi sifatida tayanch kompetensiyalar atamalarida ifodalangan ta'lim va tarbiyaning asosiy natijalarini ajratishga imkon beradi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv doirasida biz tomonimizdan, shuningdek, ta'lim jarayonida har bir o'quvchining uning individual xususiyatlari va haqiqiy o'quv imkoniyatlari (bilishga oid ehtiyojlari)ga mos ravishda ta'limning majburiy natijalariga erishishni eng yaxshi tarzda amalga oshiruvchi tabaqalashgan yondashuv qoidalari; hamda o'quvchining o'z xatti-

harakatlari mazmunini anglashini, unda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi refleksiv yondashuv qoidalari inobatga olindi;

2) tizimli yondashuv qoidalari innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishni ta'lim jarayonining umumiy tuzilmasida alohida jarayon emas, balki boshqa tuzilmalar bilan munosabatlar tizimida mavjud bo'lgan va amal qiladigan jarayon sifatida qarash imkonini beradi;

3) kompetentli yondashuv qoidalari o'quvchining ta'lim jarayonida, haqiqiy hayotiy vaziyatlarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va xatti-harakatlarning umumlashgan usullaridan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligi aks etadi;

4) tushunchali-sinergetik yondashuv qoidalari innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini nazariy-metodologik strategiya sifatida qarash imkoni mavjud bo'lib, uning tizim hosil qiluvchi asosi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish g'oyasi hisoblanadi [217].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni o'qitishning didaktik prinsiplari bilan belgilanadi. Ma'lumki, o'qitish prinsiplari – bu eng umumiy qoidalar bo'lib, ularda o'quvchilarni o'qitish mazmuni, tashkil etilishi va metodikasiga talablar ifodalangan [69; 84-95-b.].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning belgilovchi prinsiplari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ta'limning hayot bilan aloqadorligi, insonparvarlik, psixologik qulaylik, faollik va mustaqillik, sub'ektiv, tabaqalashgan o'qitish, refleksiv qarashlar; nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro baholash, komplekslilik, fanlararo aloqadorlik, ko'p funksionallik, kontekstlilik, talablarning umumiyligi; tizimlilik, yaxlitlilik; dialogiklik, ob'ektivlik, dinamiklik; o'z-o'zini tashkil etish, o'z-o'zini amalga oshirish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini rivojlantirish, hamkorlik prinsiplari.

Biz sanab o'tilgan prinsiplarning mohiyatini ko'rib chiqish maqsadini

ko'zlamaymiz, chunki ularning xususiyatlari ilmiy adabiyotlarda yaxshi ochib berilgan. Innovatsion yondashuvni amalga oshirishda mazkur prinsiplar talablarini bajarish o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarni ongli va mustahkam egallashlarini ta'minlaydi. Ishlab chiqilgan modelni yuqori komponenti va muallimlik sharoitlar yig'indisi bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va joriy qilinishiga bog'liqdir. Uning ta'sirchanligin ko'rib chiqiladi.

Tasodifiy, tarqoq sharoitlar belgilangan vazifani samarali echa olmaydi.

Biz tomonimizdan belgilangan sharoitlarning har birini asoslaymiz va batafsil ko'rib chiqamiz.

Birinchi sharoit boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv muvaffaqiyatlariga erishishning uzluksiz motivasiyasi. Mazkur sharoitni ajratish, boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsining ta'limda, ixtiyoriy boshqa faoliyatga muvaffaqiyatga intilishi hamda uning shaxsiy yutuqlarining sifatli o'sishi nafaqat uning qobiliyatlari, malaka va bilimlariga, balki o'quvchi shaxsining rivojlanishiga maqsadga yo'nalganlikni bag'ishlaydigan uning erishish motivasiyasiga bog'liqligi bilan aloqador.

Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv muvaffaqiyatlariga erishishning uzluksiz motivasiyasi uni qo'yilgan maqsadlarga erishish va o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda ahamiyatli natijalarni olish uchun ishlashga unday oladi.

Maktabda ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish va ilm olishga bo'lgan motivasiyasini to'g'ri baholash shu bilan birga bilim ko'nikma malakalarini shakllantirish va qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi yangi maqsadlarni belgilash va amalga oshirish, asosiysi esa, o'z-o'zini o'zgartirish va o'z-o'zini rivojlantirish, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini egallashlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog'liqligini inobatga olishi kerak [203; 45-b.].

Ammo o'quvchilarda yutuqqa uzluksiz erishish motivasiyasining mavjud emasligi (o'z-o'zini o'zgartirish va o'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyojning mavjud emasligi) sub'ektlarning o'quv faoliyatlari samaradorligi va turli hayotiy

vaziyatlarda ularning muvaffaqiyatliliklariga to‘sqinlik qiluvchi sezilarli omil bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishishga, ta'lim olishga qiziqishni oshirishga ko‘maklashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining mazmunli-metodik ta'minotini amalga oshirish sifatida ifodalangan ikkinchi sharoitni ko‘rib chiqamiz. Mazkur pedagogik sharoitni ajratishda, biz yangi ta'lim paradigmasini e'lon qilishga qaramay, zamonaviy maktabning ta'lim tizimi o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil topishlari va to‘ldirishlariga to‘sqinlik qiluvchi, avvalgidek, o‘quvchilar ta'limining an'anaviy “bilimli” paradigmasiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqdik. Mazkur holatning sababi o‘quvchilarda ta'lim olish ko‘nikmasini shakllantirish muammosining etarlicha nazariy-metodologik va mazmunli-metodik ishlab chiqilmaganligida yashiringan.

O‘quvchilarda ta'lim olish ko‘nikmasini shakllantirish mazmuni va metodikasini ishlab chiqish va amalga oshirish biz tomonimizdan uchta yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan noan'anaviy darslar hamda muvaffaqiyat darajalari bo‘yicha tabaqalashtirilgan va o‘n ballik shkala bo‘yicha o‘z-o‘zini tekshirish va o‘z-o‘zini baholashga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar va topshiriqlar ishlab chiqildi;

2) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga 10 ballik tizim tartibida amalga oshiriladigan, innovatsion faoliyatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiflar taklif etildi;

3) pedagogik innovatsiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasiga ta'siri kuzatib borildi.

Bizni qiziqtirgan jarayonni mazmunli-metodik to‘ldirishni amalga oshirishning sanab o‘tilgan shakllarining mohiyatini ko‘rib chiqishga murojaat etamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida baholash ko'nikmalarini rivojlantirish va universal o'quv xatti-harakatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi topshiriqlarni hamda muvafaqiyat darajalari bo'yicha tabaqalashtirilgan va 10 ballik shkala bo'yicha o'z-o'zini tekshirish va o'z-o'zini baholashga yo'naltirilgan maxsus mashqlar, topshiriqlarni ishlab chiqish o'quvchilarning ta'lim natijalarini belgilashda maqsadlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Yangi sharoitlarda o'quvchi o'zining o'quv faoliyatining tashabbuskori, ta'lim jarayonini faol sub'ektiga aylanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchining sub'ektlilik vaziyati uning baholash mustaqilligini nazarda tutadi.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan, shuningdek, maxsus fanga oid, umumantropologik va psixologik turlardan tashkil topgan (P.Ya.Galperin) maxsus mashqlar – masalalar tizimi qo'llanildi, ularni echish o'quvchilarning belgilangan shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlari xususiyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Ko'rsatib o'tilgan mashqlar va baholash topshiriqlari tizimi biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan 1-4 sinf o'quvchilari uchun noan'anaviy darslarni o'tkazish uchun "Yutuqlar darajasi" dasturining asosini tashkil etdi.

Bundan tashqari, tajriba-sinov ta'limida biz tomonimizdan muvafaqiyat darajalari bo'yicha tabaqalashtirilgan va 10 ballik shkala bo'yicha o'z-o'zini tekshirish va o'z-o'zini baholashga yo'naltirilgan maxsus mashqlar, topshiriqlar sinovdan o'tkazildi. Mazkur sharoitni amalga oshirishning muhim jihati, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni qo'llash hisoblandi. Biz o'qituvchilar uchun tavsiflarni quyidagicha tarzda ifodaladik:

1. O'quv hamkorligini ijobiy o'rnatishni amalga oshirish. Ijobiy o'quv hamkorligi muhitini tashkil etish va ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasida baholash o'zaro aloqalarini o'rnatish (o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan) lozim. Bunda pedagog va o'quvchilarning baholash faoliyatlarini amalga oshirish quyidagi ijobiy

ehtiyojlardan kelib chiqishi kerak:

qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj o'quvchiga dalda berish va tinchlantirishga xizmat qiluvchi xatti-harakatlar va so'zlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchi ishining muhokamasini qo'llab-quvvatlash, unga o'z kuchiga ishonchni uyg'otishdan boshlanishi zarur. O'quvchiga o'quv topshirig'ining yomon bajarilganligi to'g'risida aytish kerak emas, balki o'quvchini ma'lum harakatlari yoki xulqi uchun samimiy maqtash va o'quvchi ishidagi mumkin bo'lgan yaxshilanishlarga e'tibor qaratish kerak. Bunda pedagog boshlang'ich sinf o'quvchisining o'quv muvaffaqiyatlarini baholash jarayonida uning shaxsiyatiga o'tmaslik kerakligini unutmazligi muhim. Faqatgina bajarilgan o'quv ishi baholanishi kerak;

tushuntirishga ehtiyoj boshlang'ich sinf o'quvchisiga u ishda nimani to'g'ri bajarganligi yoki qanday xatolarga yo'l qo'yganligini tushunishga imkon beruvchi ijobiy qayta aloqani amalga oshirish yordamida ro'yobga chiqariladi. Bu holatda o'qituvchiga dasturning belgilangan talablariga ishda yoki natijalarda aniq nima javob bermasligini va ular natijaga – balli baholashga qanday ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatishi kerak. Baholovchi shaxs tomonidan keltirilgan ma'lumot o'quvchiga tushunarsiz bo'lsa, pedagog savollar berishi kerak. Mazkur savollarning maqsadi – o'quvchiga yoki o'quv yutuqlariga munosabatni ifodalash emas, balki ma'lumot olishdan iborat. Tushuntirishga ehtiyoj – bu o'quvchiga o'qituvchi uning fikri bilan qiziqishini ko'rsatuvchi ijobiy ehtiyojdir. Biroq, agar o'qituvchi ovozining ohangi yoki savollarni ifodalashi samimiy va mehrli qiziqish o'rniga baholashga intilishni yoki o'zining salbiy munosabatini ifodalasa savollar himoyalanih reaksiyasini uyg'otishi ham mumkin;

hamdardlikka ehtiyoj o'qituvchiga baholanuvchining holatini yaxshiroq tushunishga va u taqdim etilayotgan ma'lumotning rasional hamda emosional mazmunini tushunayotganligiga ishonch hosil qilishi imkonini beradi.

2. Baholash jarayonida faol tinglash usulidan foydalanish. Baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'qituvchining roli nafaqat bilimlarning

haqiqiy darajasi yoki o'quv xatti-harakatlari majmui shakllanganligi holatini belgilashga, balki o'quv ishining muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga ham xizmat qiladi. Shuning uchun, tinglashni bilish hatto ahamiyatsiz belgilar, alohida holatlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy muammolarni aniqlash qobiliyatini nazarda tutadi.

3. Baholash o'zaro munosabatlari amalga oshirilgan o'quv mashg'ulotini ijobiy nuqtada yakunlash kerak. Bartaraf etilishi o'quvchining shaxsidan alohida e'tiborni talab etadigan muammolarni yana bir bor ta'kidlash va o'quvchiga uning ta'limning yuqori natijalariga erisha olishiga ishonchni bag'ishlash kerak.

Ko'rib chiqilgan metodik tavsiyalar asosida biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda foydalangan ta'lim oluvchilarning baholash faoliyatlariga yo'naltirilgan tavsiyalarni ta'kidlaymiz . Mazkur maqsadda tayanch kompetensiyalar shakllanganligini baholash uchun namunaviy masalalar tizimi ishlab chiqildi, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ifodalandi; shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlari shakllanganligini baholashning mezonlari ajratildi, ular diagnostik vazifalardan foydalanishni engillashtirish uchun jadvallarda ifodalandi.

Ajratilgan mezonlar o'quvchilarni tayanch kompetensiyalar shakllanganligi bo'yicha tabaqalashtirishga va rivojlantiruvchi ishlarning strategiyasini belgilashga imkon beradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan mazmunli-metodik ta'minotni amaliyotda joriy etish innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligini oshiradi.

Uchinchi sharoit boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida sub'ektki qarashlari va o'zaro munosabatlarning shakllanishida pedagogik qo'llab-quvvatlashdir. Mazkur sharoitni ilgari surishda biz, boshlang'ich sinf o'quvchisini an'anaviy baholash jarayonida ko'pincha baholash vaziyatining unga psixologik-jarohatlovchi ta'siri bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi, shuning uchun o'quvchining faoliyatini baholashga pedagogning ijobiy munosabati hamda uni

samarali amalga oshirishda ko'maklashishga tayyorligi muhim hisoblanishidan kelib chiqdik. O'quvchilarning o'quv faoliyatida sub'ektiv qarashlari va o'zaro aloqalarining shakllanishida pedagogik qo'llab-quvvatlash baholash jarayonini izchil, ongli va asoslangan, o'z-o'zini bilishga, haqiqiy imkoniyat va ehtiyojlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishiga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik sharoitlari majmui o'zaro to'ldirish prinsipi bo'yicha qurilgan majmua hisoblanib, unda har bir element alohida xususiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan va faqatgina ularning integrasiyasi innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini tizimli shakllantirish imkonini beradi.

V.A.Belikovning zarur va etarli sharoitlarni aniqlash bo'yicha tavsiflaridan foydalanib [24], biz tomonimizdan taklif etilgan pedagogik sharoitlar har birining turini aniqlaymiz. Birinchi va uchinchi sharoitda uzluksizlik ta'minlangan, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv muvaffaqiyatlariga erishish uzluksiz motivasiyasi muammosi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida sub'ektiv qarashlari va o'zaro aloqalarining shakllanishida pedagogik qo'llab-quvvatlash pedagogik tadqiqotlarda o'rganilgan. Shunga ko'ra, mazkur sharoitlarni etarli deb hisoblash mumkin.

Ikkinchi sharoit boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini samarali shakllantirish muammosini to'liqroq hal etish imkonini beradi va shu bilan birga, tadqiqotning yangiligini ta'minlaydi, chunki avval qo'yilgan muammo jihatidan o'rganilmagan. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik topshiriqlar va yangiliklar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va intilishlarini yuqori motivatsion topshiriqlar bilan boyitilib borildi; boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni qo'llashda ifodalanadi. Shuning uchun ikkinchi sharoit etarli hisoblanadi.

Amalga oshirilgan etarli darajadagi pedagogik omillardan o'rinli foydalangan

holda pedagoglar tomonidan keltirilgan metodikalar yordamida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib ishlab chiqilgan model asosida diagnostika ishlari amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelini joriy etish biz tomonimizdan uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi – yo'naltiruvchi bosqich (1-sinf) baholashning mohiyati, predmeti, maqsadlari va usullari, baholash turlari to'g'risidagi elementar bilimlarni shakllantirish va ta'lim jarayonida baholashning turli usullarini qo'llash sodda ko'nikmalaridan iborat bo'lgan, o'quvchilarni baholash faoliyatining asoslari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan. Mazkur bosqich o'quvchilarda ustuvor tartibga soluvchi universal o'quv xatti-harakatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularsiz boshqa barcha umumbilishga oid o'quv xatti-harakatlarini o'zlashtirish deyarli mumkin emas, chunki ularning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga oid yangi hosilalaridan biri – o'zgaruvchi sharoitlarga mos ravishda harakatlarni ongli, vositali tartibga solinadi. Tartibga soluvchi komponent o'quvchilarning o'z xatti-harakatari maqsadini belgilash, rejalashtirish, nazorat, tuzatish va o'zlashtirish muvaffaqiyatini baholash orqali bilishga oid va o'quv faoliyatlarini tashkil etishni ta'minlaydi.

Ikkinchi – shakllantiruvchi bosqichda (2-4 sinflar) bilishga oid, kommunikativ va shaxsiy mezonlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning o'z o'quv yutuqlarini o'z-o'zlari baholashlarini amalga oshirish orqali baholash faoliyatiga jalb etishga ahamiyatli e'tibor qaratilgan.

Uchinchi – refleksiv bosqich (4-sinf ikkinchi yarim yilligi). Refleksianing yuzaga kelishi va rivojlanishi boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsining asosiy yoshga oid yangi hosilasi, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Faoliyatda refleksiya o'quvchining o'z xatti-harakatlarining mazmunini anglashini nazarda tutadi, shuning uchun mazkur bosqich dastlabki egallangan kompetensiyalarni takomillashtirishga va o'zlashtirilgan umumlashgan

xatti-harakatlar usullarini o'quvchilarning hayoti muammolarini echish uchun o'quv faoliyatida hamda haqiqiy turli vaziyatlarda qo'llashga bag'ishlangan edi. Shuningdek, mazkur bosqichda haqiqiy olingan natijalarni solishtirish refleksiv ko'nikmalarini shakllantirishga, o'quv faoliyatida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tahlil qilish, qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlash, faoliyat natijalarini mustaqil baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish jarayonining mohiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining baholash faoliyatlarida umumlashgan xatti-harakatlar usullarini shakllantirishning har bir bosqichida maqsadga erishishga yo'naltirilgan ma'lum metodlar, usullar va tashkiliy shakllar yordamida ifodalandi va amalga oshirildi.

Shu tariqa, modelning mazmunli-prosessual bo'limi biz tomonimizdan o'qituvchi va o'quvchilarning faol o'zaro aloqalari tashkil etilgan yaxlit pedagogik jarayon doirasida amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni sifatida ifodalandi. Samaradorlik komponenti o'z ichiga o'quv jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligining mezonlari, darajalarini (yuqori, o'rta, past) birlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish modeli komponentlarining amal qilishi va rivojlantirishi mezonlar va uning samaradorligi ko'rsatkichlarini aniq belgilash bilan ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligining mezonlari bo'lib, ularni tashkil etuvchi komponentlarning darajalari (past, o'rta, yuqori) hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan mezonlarni baholash biz tomonimizdan ularning shakllanganligi ko'rsatkichlarini aniqlash metodikalari bo'yicha o'tkazildi. O'quvchilar ta'lim va tarbiyalarining samaradorligi ta'limning quyidagi komponentlaridan tuziladi:

bilim, ko'nikma va malakalarning asosiy umumta'lim komponenti, u ta'limning fanga oid natijalarini shakllantiradi;

tartibga soluvchi, bilishga oid, kommunikativ mezonlar majmui, u ta'limning metapredmetli natijalarini ifodalaydi;

dunyoqarashga oid bilimlar, kompetensiyalarning asosiy turlari, ular ta'limning shaxsiy natijalarini tashkil etadi.

Ta'limning sanab o'tilgan komponentlarini biz o'quvchilarning ta'lim va tarbiyalarining samaradorligini tavsiflovchi mezonlar sifatida qabul qilamiz.

2.2 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning metodik ta'minoti

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelining boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etilishi metodika yordamida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish muammosini hal etishning nazariy va amaliy tajribasiga tayanib, biz tomonimizdan innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish ishlari amalga oshirildi.

Bu bizga modelni amalga oshirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatlari tahlilini to'liqroq ifodalashga imkon berib, buning oqibatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining amaliyotida loyihalangan modelni va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini samarali joriy etishni ta'minlaydi.

Nazorat guruhlarida (NG) mashg'ulotlar an'anaviy o'qitish doirasida amalga oshirildi va boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni

shakllantirishga yo'naltirilmagan edi. Har bir tajriba guruhlarida ma'lum pedagogik sharoitlar amalga oshirildi. 1-2-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalari tarkibiy, mantiqiy va funksional bog'liqlikning ijtimoiy-pedagogik individual ta'lim traektoriyasini tarmoqli ta'lim maydonini aniqlashtirish asosida rivojlantirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning quyidagi tayyorlov, operasion, umumlashtiruvchi bosqichlarni qamrab oladi.

Birinchi – tayyorlov bosqichi boshlang'ich ta'limning birinchi yilidagi ta'limga mos edi. Mazkur bosqich boshlang'ich sinf o'quvchilarini amalga oshiriladigan faoliyatga tayyorlik holatiga keltirishga qaratilgan edi. Mazkur bosqichda ikkita yo'nalish amalga oshirildi: motivatsion va yo'naltiruvchi. Motivatsion ish yo'nalishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida amalga oshiriladigan faoliyat hamda uning mazmuniga ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog'liq edi. Yo'naltiruvchi ish yo'nalishi yo'nalganlik va ko'rsatmalar tizimini yaratish orqali amalga oshirilib, ularni inobatga olish egallanadigan xatti-harakatlarni bajarish uchun zarur edi (shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid, kommunikativ). Yo'naltiruvchi asos sifatida quyidagilar xizmat qildi: xatti-harakatning yakuniy mahsuli namunasi, xatti-harakat predmetlari, qurollari, operasiyalari.

Mazkur bosqich boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'yilgan masalalarni echishda o'qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikda-individual o'zaro aloqalarining ustunligi bilan ifodalandi. Birinchi bosqich davomida turli predmetlarni o'rganishda tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini bajarishning dastlabki tajribasi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z xulqlari va faoliyatlarini taklif etilgan namuna va qoidalarga mos ravishda qurish, bajariladigan xatti-harakatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tuzatish ko'nikmalari shakllantirildi.

Ikkinchi – operasion bosqich boshlang'ich ta'limdagi keyingi bir yarim yilga mos keldi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi yoki sinfdoshlar bilan hamkorlikdagi tartibga solishda moddiy vositalarga tayanish bilan xatti-harakatlarning yangi usullarini qurish va to'g'ri bajarishlarini ko'zda tutdi. Mazkur

bosqichda hamkorlikdagi echish uchun taklif etiladigan predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni asta-sekin murakkablashtirish, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikdagi ish shakllarining asta-sekin almashishi sodir bo'ldi.

Topshiriqlarni bajarishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir-birlarini murojaat etish ehtiyoji yuzaga keldi, bu esa, o'quv vaziyati xususiyatining o'zgarganligi to'g'risida guvohlik berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil harakat qiladi va o'qituvchiga savol berib, fikrlar almashadigan, bu bilan o'quv xatti-harakatlarining predmetli (masalani echishni tashkil etuvchi operasiyalar) va psixik (shakli, ixchamligi, vaqti bo'yicha harakatni o'zgartirish) tomonlarini takomillashtira boshladilar. Ikkinchi bosqich yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilari predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni izchil hamkorlikda echishga tayyor edilar.

Uchinchi – umumlashtiruvchi bosqich tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ o'quv xatti-harakatlarini hamkorlikda echish jarayonida predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni takomillashtirishni ko'zda tutdi va bir yil davom etdi. Mazkur bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatining funksional bo'g'inlarini amalga oshirishda o'quv hamkorliklaridagi mustaqillik darajalarining o'sishi kuzatildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiyinchiliksiz hamkorlikdagi ishning predmetli sharoiti bilan belgilangan boshlang'ich xatti-harakatlar va operasiyalarni taqsimladilar, xatti-harakat usullari bilan almashdilar, umumiy faoliyat usullarini rejalashtirdilar, bu esa qo'yilgan vazifalarda hamkorlik – o'zaro aloqadorligini belgiladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilari masalani echishning butun jarayonini tashqi namoyon bo'lishisiz ayta boshlaganliklarini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining har bir bosqichida barcha pedagogik sharoitlar amalga oshirildi.

Birinchi pedagogik sharoit sinfda umumiy an'analarni shakllantirish,

ahamiyatli hodisalarni jamoaviy boshdan kechirish vaziyatlarini yaratish, har bir o'quvchining sinf hayotiga emosional kirishishga intilishi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatning innovatsion turlarida: tanlovlar, bellashuvlar, festivallar, ijodiy loyihalar va boshqalarda ishtirok etishlari bilan amalga oshirildi.

Ikkinchi pedagogik sharoitni amalga oshirish predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalarni maqsadga muvofiq tanlash, ma'lum izchilligi va aniq ta'lim sohalari bilan bog'liqligini ko'zda tutdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga taklif etilgan masalalarni echishlari shartlar bilan tanishish, echish va nazorat kabi uchta ketma-ket bosqichlarda amalga oshirildi. Masalani o'quv hamkorligi sharoitlarida hamkorlikda echishning barcha bosqichlari individual echimga nisbatan ma'lum o'ziga xoslikka ega edi, biroq individual echimlarning o'z vaqtidagi va samarali nazorati alohida ahamiyatga ega edi.

Taklif etiladigan predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid, predmetli-kommunikativ masalalar, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining tashxis qilish vositasi sifatida ham foydalanilganligini ta'kidlash lozim. O'qituvchi topshiriqlarni tanlashni mustaqil yoki boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy va ijodiy topshiriqlar hamda mashqlar talablariga rioya etildi. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan topshiriqlar:

- 1) qiziqarli bo'lishi kerak (shakli, mazmuni, syujet va boshqalar bo'yicha; echish usuli bo'yicha yoki natijaning kutilmaganligi);
- 2) murakkablik darajasi bilan farqlanishi, bir necha bajarish usullariga (va javoblar) ega bo'lishi kerak;
- 3) qiziqarli, tarbiyaviy, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan va fanlararo aloqador mazmunni tanlash kerak;
- 4) ularni bajarish ma'lum bilishga oid bilimlarni egallashsiz amalga oshirib bo'lmaydigan tarzda ifodalanishi kerak;

5) sodda, tushunarli va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligi tomonidan oson amalga oshiriladigan bo'lishi kerak.

G.I.Shukina ta'kidlaganidek, o'quvchini faoliyatga undash doimo o'qituvchidan kelib chiqqunga qadar, uning o'z faoliyati esa "ichki muhit"ga tayanmasa, vaziyatli rivojlanish to'g'risida aytish mumkin bo'lib, tashqaridan undashlarsiz u umuman so'nishi ham mumkindir [230]. Shuning uchun mazkur pedagogik sharoitni amalga oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etishlarini nazarda tutdi. O'qituvchi yordamchi, konsultant roliga namoyon bo'ldi. Shu tariqa, o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil izlanishga undadi, o'quvchilarni tadqiq etilayotgan kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining to'laqonli ishtirokchilariga aylantirdi.

Uchinchi pedagogik sharoitni amalga oshirish o'qituvchining boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan uning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari, o'quv faoliyati jarayonida aniqlangan yutuqlari va qiyinchiliklari, sinfdoshlari va ota-onalari bilan munosabatlarini muhokama qilish orqali amalga oshirildi. Sanab o'tilgan tavsiflarning hamkorlikdagi tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z xulqlari ko'rsatkichlarini o'zgartirishlariga yordam berdi. Mazkur pedagogik sharoitni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun «Shaxsiy yutuqlar kundaligi»dan foydalanildi, u to'rt yil davomida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining individual o'sishini kuzatish imkonini berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion-metodlardan foydalanilganligini ta'kidlash muhim bo'lib, biz quyidagilardan foydalandik:

1) intellektual jarayonlar, ular fikrlash, mulohaza yuritish, asoslash, isbotlash holatlarini uyg'otadi (analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash);

2) emosional jarayonlar (muvaffaqiyat, xursandchilik, o'z yutuqlaridan faxrlanish, faoliyatdan qoniqishni boshdan kechirish);

3) tartibga soluvchi jarayonlar (kuchlarni jamlash sifatida irodaviy intilishlar, maqsadga yo'nalganlik, qaror qabul qilish, tirishqoqlik, qat'iyatlilik, diqqat);

4) ijodiy jarayonlar, ular tasavvur, xayolot, yangi obrazlarni, modellarni yaratish va b.q.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish ma'lum fanlarni o'zlashtirish doirasida hamda maxsus ishlab chiqilgan «Yutuqlar darajasi» dasturi bo'yicha darsdan tashqari vaqtda sodir bo'lib, ular tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib berdi.

Darslarni noan'anaviy shaklda o'tkazish dasturining asosiy talabi (integrasiyalashgan darslar, dars-treninglar, dars-ekskursiya, taqdimotlar, dars-suhbatlar).

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan noa'anaviy darslarni o'tkazish uchun «Yutuqlar darajasi» innovatsion dasturi

**Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan noa'anaviy darslarni o'tkazish
uchun «Yutuqlar darajasi» innovatsion dasturi**

Mavzu	Mavzuning nomlanishi	Soatlar miqdori
1-sinf «Bilimlarning ochilishi»	«Muvaffaqiyat zinapoyasi»dan qadam tashlaymiz	
1-mavzu	Harflar qanday paydo bo'lgan, darslik bilan tanishish	
2-mavzu	So'z va bo'g'in haqida interaktiv o'yinlar tashkil qilish	
3-mavzu	Bo'g'in va tovush haqida interaktiv o'yinlar tashkil qilish	

4-mavzu	Tovushlar olamiga sayohat	
5-mavzu	O‘zbek tilining boshqa tillardan farqlari va afzalliklari	
6-mavzu	Ona tilim – katta mamlakatning timsoli	
7-mavzu	Og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish usullari	
	«Sehrli alifboga sayohat»	
8-mavzu	Unli tovushlar bilan do‘stlashamiz	4
9-mavzu	Undosh tovushlar bilan do‘stlashamiz	
10-mavzu	Harflar olamiga sayohat qilamiz	
	«Harflar poezdi»	
11-mavzu	Savodli bo‘lishni istaganlar uchun	2
12-mavzu	Ertaklar yaxshilikka etaklar	
13-mavzu	Ertak – lof, ammo haqiqatni ifodalaydi	
	Yakuniy mashg‘ulot Men o‘qishni o‘rganaman!	
		Jami 18
2-sinf	«Tilimiz – milliy boyligimiz»	
	Kirish mashg‘uloti Ona tilim – jonu dilim	1
	«Men mustaqil o‘qiman va yozaman»	
1-mavzu	O‘quvchilarda nutqiy kompetentlikni rivojlantirish treynigi	2
2-mavzu	«So‘zlar menga dunyoni tanitadi»	2

2-mavzu	O‘zbek xalqining xalq ijodiyoti	2
4-mavzu	O‘zbek tilining – o‘tmishi va buguni	2
5-mavzu	Bosh harf va kichik harf bilan boshlanadigan so‘zlar	2
	«O‘zbek yozuvi ranglarda, tovushlarda, shakllarda»	
6-mavzu	Jonli harflar yordamida gap tuzamiz	2
7-mavzu	So‘zlar va iboralar sayyorasi	3
8-mavzu	«Salom, imlolar! Harflar qanday bog‘lanadi»	4
9-mavzu	Suv, havo, er – tabiatning muhim qismi	1
10-mavzu	Sehrli alifboni o‘rganishda davom etamiz	1
	«To‘g‘ri yozishni bilib ol»	
11-mavzu	To‘g‘ri yozuv – insonning eng katta boyligi	2
12-mavzu	Mening sevimli mashg‘ulotim yozish	1
13-mavzu	Kasblar xaqida yozamiz va suhbatlashamiz	1
14-mavzu	Chiroyli yozishni mashq qilamiz	1
	«Kitob bilan do‘stlashamiz»	
15-mavzu	Kitob – mening do‘stim	1
16-mavzu	«Qaysi kitobni o‘qisam ekan»	2
Yakuniy mashg‘ulot	Muvaffaqiyatimning siri	1
	Jami: 35	

	3-sinf «Ona tilim yangi bir olam»	
	Kirish mashg'uloti Endi o'qiy olaman va dunyoni taniman	1
1-mavzu	Insonlar nima uchun turli tillarda so'zlashadilar	1
2-mavzu	21-oktyabr – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun	1
2-mavzu	O'zbekiston – tillar respublikasi	2
4-mavzu	Harflarni do'stlashtirib, qo'shib o'qiyamiz	2
5-mavzu	Mening yozuvim mening yuzim	2
	«Yozuvlar ranglarda, tovushlarda, shakllarda»	
6-mavzu	Harflar olamidagi tanish notanishlar	4
7-mavzu	Kimning yozuvi yaxshiroq?	3
8-mavzu	Harf, birikma, yozuv	1
9-mavzu	Yozuvning asosi: harf, harfiy birikma, bo'g'in	4
10-mavzu	Yozuvning shikoyatlar kitobi	2
	«To'g'ri so'zlashni bilib ol»	
11-mavzu	Savodli va chiroyli so'zlashni o'rganamiz	2
12-mavzu	Nutqimizni to'g'rilash haqida jiddiy suhbat	2
13-mavzu	«Yoza olmayman», «Men o'qiy olaman» qanday zo'r	2
14-mavzu	Mening rasmlarim so'zlaydi	1
15-mavzu	Biz ona tilini yaxshi ko'ramiz	2

	«Barcha baholar yaxshi»	
16-mavzu	Qanday xatosiz yozish mumkin?	2
17-mavzu	Qanday to‘g‘ri o‘qish mumkin	2
18-mavzu	Yakuniy mashg‘ulot Men qo‘yilgan maqsadga qanday erishishni bilaman	1
		Jami 35
1-mavzu	4-sinf «O‘qish va yozish olam bilan hamjihatlikda yashayman»	
1-mavzu	Kirish mashg‘uloti Men ko‘p narsalarni bilaman va qila olaman. Yanada ko‘proq bilish va qila olishni istayman	1
	«Men o‘qiyotgan kitoblar»	
1-mavzu	Afsonalar, ertaklar, hikoyalar	1
2-mavzu	Yozuv mo‘jizakor, u ko‘p narsalarni yozadi	2
2-mavzu	Men she'r yozishni xohlayman	5
4-mavzu	Bizning yozuvimiz tarixi	1
	«Yozuv ranglarda, tovushlarda, shakllarda»	
5-mavzu	To‘g‘ri yozish qoidalari	2
6-mavzu	O‘qituvchimning yozuvi andoza	1
7-mavzu	Gaplarni to‘g‘ri tuzish qoidalari	1
8-mavzu	Harflarni rasmlardan topamiz	2

9-mavzu	Mening sevimli mashg‘ulotim	1
10-mavzu	Yozuvchi bo‘lish uchun nimalarni bilish kerak	2
	«O‘zingni bilib ol»	
11-mavzu	Endi o‘zim haqimda yoza olaman va gapira olaman	1
12-mavzu	Men bilimli inson bo‘lib o‘lishni istayman	2
13-mavzu	Men savollar berishni va ularga javoblarni tahlil qilishni bilaman	2
14-mavzu	Mening shaxsiy kitoblarim bor	2
15-mavzu	Kitob do‘koniga sayohat	2
16-mavzu	Men so‘zlarning egasini, kesimini, qo‘shimchalarni o‘rganaman	2
Yakuniy mashg‘ulot	Mening kelajagim baxtli bo‘ladi	1
		Jami 35

“Yutuqlar darajasi” dasturini amalga oshirish doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taklif etilgan topshiriqlarga misollar keltiramiz.

O‘z faoliyatini rejalashtirishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar. Topshiriqlarning mazkur to‘plami boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yakuniy natijada qiyinchiliksiz o‘z faoliyatlarining maqsadini aniqlay olishlari; o‘z faoliyatlarini rejalashtirishlari; vazifa yoki muammoni komponentlarga ajratishlari; u yoki bu hodisa yoki harakatning oqibatlarini oldindan bilish va zarur bo‘lganda qayta rejalashtiradi.

1-topshiriq. O‘zingizning dam olish kuningiz haqida barcha imlo qoidalariga

amal qilgan holda yozing.

«Uzoq kutilgan dam olish kuni boshlandi. Ko‘p ishlarga ulgurish kerak! Siz do‘stingiz bilan ko‘chada bir soat bo‘lsa ham aylanishga kelishib oldingiz; siz butun hafta davomida yangi o‘yinni o‘ynashni istaysiz. Ammo bunga hech bo‘lmaganda bir soat kerak, bo‘lmasa o‘ynamagan ham ma’qul. Doimgidek uy vazifasini bajarish kerak. Siz bunga bir yarim soat ketadi deb umid qilasiz. Shuningdek, ota-onangiz bugun o‘z xonangizni yig‘ishtirishingizni qat’iy tavsiya qildilar. Uning holatidan bunday ishga kamida bir soat kerakligi ma’lum. Rejalar shunday bo‘ldi! Barchasiga ulgurish uchun bu kunni qanday tashkil etish kerak?». Topshiriq ustida ishlash:

Alohida qismlarni ajrating. Nechta gap hosil bo‘ldi? Nечta so‘z bo‘ldi? Matnni yozish uchun qancha vaqt sarflash kerak? Barcha qoidalarga amal qildingizmi? Qayta tekshirib chiqing.

№ Topshiriq ustida ishlash Gap tuzish Matn tuzish

1. Vaqt sarfi
2. Xato nechta

2-topshiriq. «Yaqinda tug‘ilgan kuningiz, siz o‘z do‘stlaringizni taklif qilishni istaysiz. O‘rtoqlaringizga taklifnoma yozing. Harflarni turli rangli qalamlar bilan yozing. Barcha imlo qoidalariga amal qilishni unutmang. Bayram qiziqarli bo‘lishi uchun nima qilish kerak?». Barcha do‘stlaringizga kichkina qog‘ozchalarga savollar tuzing va qutichaga joylab qo‘ying. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalan, til qoidalari xaqidagi savollar bilan qiziqarli o‘yin tashkil qilishingiz mumkin.

3-topshiriq. Sizning maktabingiz, maktab oldidagi eng yaxshi gullar haqida hikoya yozing. Hikoyani yozishda eng ta’sirli so‘zlardan foydalaning. Barcha imlo qoidalariga amal qilishni unutmang. Maktabingizda yana nimalar bo‘lishini xohlar edingiz, o‘z taklifingizni bildiring.

4-topshiriq. Siz uyingizdagi hayvonlar ular bilan bog‘liq qiziqarli voqealar haqida hikoya tuzing. Barcha imlo qoidalariga amal qilishni unutmang.

5-topshiriq. Kema qurish kerak. U mustahkam bo‘lishi uchun uni “maslik”

qo'shimchasiz bo'lmaydigan fe'llar taxtalaridan qurish kerak. Shunda kema mustahkam bo'ladi. Suv bo'yida sochilib yotgan taxtalarda nimalar yozilgan edi: «yoqtirmaslik», «tushunmaslik», «ko'ra olmaslik», «o'qimaslik», «yozmaslik», «bilmaslik», «topmaslik», «yugurmaslik», «shug'ullanmaslik».

Savollarni ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar.

1-topshiriq. «Tarbiyaviy Kubik». Mazkur topshiriq asosiga «Blum Kubigi» usuli qabul qilingan. Kubik tomonlarida turli murakkablik darajasidagi savollarning so'zlari yozilgan: nima uchun, tushuntiring, nomlang, taklif qiling, o'ylab toping, o'rtoqlashing. Masalan, o'quvchiga «Nima uchun?» tomoni tushdi, unga mazkur so'zdan boshlanadigan 2-3 ta savol o'ylab topish zarur bo'ladi.

2-topshiriq. «O'ylanganni toping». «ha – yo'q» turidagi o'yin (ya'ni savolga javoblar faqatgina «ha», yoki «yo'q» bo'lishi mumkin), nafaqat savolni ifodalash ko'nikmasining rivojlanishiga, balki boshlang'ich sinf o'quvchisining umuman fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Savolni ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishda, o'qituvchi o'quvchining savollariga qanday munosabatda bo'lishi juda muhim. o'qituvchining boshlang'ich sinf o'quvchisining savoliga javoblari darajalari ifodalangan (2.3-jadvalga qarang) [113; 138-139-b.]:

O'quvchining savoliga o'qituvchi javoblarining darajalari

Daraja	Nomi	Mohiyati	Nimani o'rgatish kerak?
--------	------	----------	-------------------------

1 Savolni inkor etish	Quyidagicha javoblardan iborat: «Bema'ni savollar berma», «meni chalg'itma», «buni bilishingga erta», «buni keyinroq o'tamiz»
-----------------------	---

Bunday turdagi doimiy javoblar bolalarni savol berishdan zeriktiradi

2 Savolni qaytarish «takrorlash» turidagi javoblar	Bunday javob rasman savolni yopadi, ammo o'quvchilarni fikrlashga yuzaki munosabatda bo'lishga o'rgatadi.
--	---

3. To'g'ri javob yoki bilmaslikni ta'kidlab rad etish	Quyidagi darajadagi javoblar: «ular ko'p eydilar», «men bilmayman»
---	--

Mazkur savollar bolani yangi ma'lumot bilan ta'minlaydi. Agar ular yana “bu yaxshi savol” kabi ma'qullashdan

iborat bo'lsa, bu bola tomonidan keyinchalik savollar berilishiga yordam beradi. Ammo bunday javoblar bolani shaxsiy fikrlashini ta'minlamaydi

4.Manbaga murojaat etish taklifi Javoblar turi: «Kel ona tili kitobiga murojaat qilamiz». Javoblarning bu turi bolani bilimga doim tayyor emasligi, bilimni izlash jarayoni muhimligiga o'rgatadi znaniya.

5.Turli javob variantlarini taklif etish Turli sabablarni nazarda tutuvchi javoblar. Bola nisbatan sodda savollar ham bir necha farazli javoblarni nazarda tutishi mumkinligini tushuna boshlaydi.

6.Nafaqat savollarni ifodalash, balki ularni tekshirish Masalan: «Qaysi tushuntirish to'g'riligini qanday aniqlaymiz?» Bola farazlarni ifodalash va tekshirishga o'rganadi.

7.Tekshirishni amalga oshirishda yordam O'qituvchi adolatli muqobil farazlarni baholash uchun ma'lumot to'plash usulini ko'zda tutadi Bola nafaqat fikrlashga, balki fikrlarni tekshirishga ham o'rganadi .

Baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar. Topshiriqlarning mazkur to'plami har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi imlo qoidalarini bilish va o'z yozuvini to'g'ri baholashi, o'zini tushunishi, o'z nutqini tahlil qilishiga yo'naltirilgan. Misol tariqasida bir necha topshiriqlarni keltiramiz.

1-topshiriq. «Bilish qiziq...». Siz ko'pincha qaysi so'zni yozishda qiynalasiz, o'ylab ko'ring? O'sha so'zlarni to'g'ri yozish uchun siz tinmay mashq qiling va kitobdan qanday yozilishini ko'rib o'rganishingiz mumkin? Yozishda muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak? Chiroyli yozishda siz uchun nima muhim? va b.q.

2-topshiriq. Iborani qanday tushunishingizni ifodalang. Inson o'z zimmasiga mas'uliyatni qabul qilishi kerak. U muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, omad yoki omadsizlik ko'pincha faqat uning o'ziga bog'liqligini bilishi kerak! «Unda o'zingga o'zing hukm qil», – dedi podshoh. «Bu eng qiyini. O'zini o'zi hukm qilish,

boshqalarnikidan qiyinroqdir. Agar sen o‘zingga to‘g‘ri hukm chiqarishni bilsang, unda sen haqiqatda donishmandsan», – dedi kichik shahzoda.

3-topshiriq. O‘zingizning biror qilmishingiz (jasoratingiz) haqida so‘zlab bering. Sheriklaringizga imo-ishoralar, mimikalar bilan ular haqida nimani o‘ylashingizni ko‘rsating, gavda bilan ifodalang.

4-topshiriq. O‘z o‘tmishingiz (hozirgi vaqt. kelajak)ni chizing. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan topshiriqlarga misollar o‘quvchilarning qiziqishlarini faollashtirish, mustahkamlashga yordam beradi, qabul qilingan qarorlarni bashoratlash, tadqiq etish va to‘g‘riligini tekshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan topshiriqlar muloqot madaniyatini rivojlantirishga va jamoada hamda jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga ko‘maklashdi. Topshiriqlarning ketma-ketligi har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun “muvaffaqiyat vaziyati”ni yaratishini ta‘minlaydigan tarzda shakllantirildi. Shunga ko‘ra, birinchi topshiriq uchun rag‘batlantirishga muhtoj bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uni echa olishlari va o‘zlarini biladigan hamda tajribali his qilishlari uchun murakkab bo‘lmagani tanlandi. So‘ngra o‘quvchilarga katta va murakkabroq topshiriqlar va mashqlar taklif etildi. Shu bilan birgalikda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga topshiriqni bajarishlarida tabaqalashgan yordam ko‘rsatish mumkin. Masalan, zaif o‘zlashtiruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ularga taklif etilgan topshiriqni echishlariga yordam beruvchi maslahat-kartochkalari, o‘xshash-namunalar, javobning rejalari va boshqa materiallarni olishlari mumkin edi. So‘ngra o‘quvchilarga birinchisiga o‘xshash mashqni mustaqil ravishda bajarish taklif etildi. Topshiriqlarni bajargandan so‘ng, o‘zaro aloqalarni tashkil etishga yordam beruvchi tekshirish amalga oshirildi. Ikki o‘quvchilar bajargan topshiriqlarning to‘g‘riligini bir-birlarida tekshirishlari doim yuqori qiziqish uyg‘otadi. O‘zaro tekshirish davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari partadoshiga o‘z daftarini berib, partadoshining daftarini esa o‘zi tekshirishi uchun oladilar. Kichik, varaqda yozilgan, mustaqil ishlar yoki daftarda yozilgan alohida topshiriqlar, mashqlar va butun uy vazifalari tekshirilishi mumkin edi.

2.3 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalari takomillashganligi dinamikasi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, shuningdek, bir-birlari uchun topshiriqlar o'ylab topdilar. Shu tariqa, o'zaro topshiriqlar o'quv hamkorligini tezroq rivojlantirishga ko'maklashdi. Uning mohiyati darsda boshlang'ich sinf o'quvchilari partadoshlari yoki boshqa sinfdoshlari tomonidan o'ylab topilgan topshiriqlarni bajarishlaridan iborat edi. Boshqalardan olingan topshiriqlar darsda yoki uyda tayyorlanishi va uyga vazifaning qismi hisoblanishi mumkin. Mazkur usul o'qituvchi bir nechta maqsadlarga bir vaqtda erishishga yordam beradi. Birinchidan, o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat texnikasini o'zlashtirishga; ikkinchidan, ijodiy faoliyatga jalb etish; uchinchidan, ta'limga bilishga oid qiziqishni oshirish.

O'zaro topshiriqlar usulining keyingi rivojlanishiga o'zaro topshiriqlarni muhokama qilish usuli xizmat qildi. Mazkur usul boshlang'ich sinf o'quvchilarini almashuvchi tarkibdagi juftliklarda ishlashga tayyorlanadi. Boshlanishi ma'lum: bir o'quvchi o'z masalasi yoki matnga, badiiy asarga va h.k. qiziqarli savolni o'ylab topadi, boshqasi esa, mazkur masalani echadi yoki savolga javob beradi. Odatiy xatti-harakatlarga yangi element – o'ylab topilgan masala va yozilgan echimning hamkorlikda juftlikdagi muhokamasini o'tkazish qo'shiladi. Muhokamaning maqsadi, topshiriqni bajarishning eng yaxshi yoki shunchaki boshqa variantlarini topish hisoblanadi. Bir-birlariga topshiriqni berib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ularni bajardilar, so'ngra esa o'ylab topilgan topshiriqlar va olingan echimlarni navbatma-navbat muhokama qilishga o'tadilar.

Shunga ko'ra, refleksiyaning rivojlantirishiga yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z faoliyatlarini, uning natijalarini o'z-o'zlari tahlil qilishlarini nazarda tutadi. Bunday topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'proq o'quv mashg'ulotlarining yakuniy bosqichida taklif etilib, shu bilan o'quvchilar va o'qituvchiga o'z rivojlanishlari holatini qayd etishlariga

imkon beradi. Misol: «Refleksiv davra» («menga topshiriq ustida ishlash yoqdi...»), «menga topishiriqni bajarish qiyin bo‘ldi, chunki...»), «Mini-insho» («birgalikda ta’lim olish qiziqarli va oson»), «Istaklar zanjiri» («Sinfdoshingizga o‘qish qiziq bo‘lishi uchun unga maslahat bering»), «Iborani yakunlang» («Boshqalar uchun topshiriq o‘ylab topish qiziqarli, chunki») va b.q.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining birinchi va ikkinchi o‘quv yillaridan so‘ng taklif etilgan metodika bo‘yicha tayanch kompetensiyalari shakllanganligi darajasining tashxisi davomida, innovatsion faoliyatda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarining joriy etilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z faoliyatlarining maqsadini mustaqil belgilashlari, amalga oshirilgan xatti-harakatlarni tahlil qilishlari, muayyan xatti-harakatning oqibatlarini aniq belgilaganliklari, o‘zlari va atrofdagilarga to‘g‘ri baho berishlari, hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish va kelishilgan holda bajarishlari, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashlariga yordam berganligi tasdiqlandi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini birinchi va ikkinchi o‘quv yillaridan keyin o‘quv va darsdan tashqari faoliyatda kuzatishlar natijalarida biz tomonimizdan tajriba-sinov ishlarining ta’kidlovchi bosqichida ajratilgan mezonlar (shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid, kommunikativ) bo‘yicha tashxis ma’lumotlari bilan tasdiqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlari joriy etilgan guruhda biz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajalari ijobiy dinamikasi bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xavotirlanuvchanlikning pasayganligini, o‘quv motivasiyasi oshganligi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasidagi munosabatlar yaxshilanganligini kuzatdik.

Olingan ma’lumotlar asosida innovatsion faoliyat asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli, shaxsiy-yo‘naltirilgan va kompetentli yondashuvlarga hamda ilmiylik, tizimlilik va izchillik,

ta'limning hayot bilan bog'liqligi, integrasiyasiga tayanish mazmun, shakllar, metodlar va vositalarni tanlashga yaxlit va ongli yondashishga imkon berib, ularning o'zaro bog'liqligini, mantiqiyligini, rivojlanish jarayoni sub'ektining faol faoliyatli vaziyatlarini ta'minlashi to'g'risidagi oraliq xulosalarga keldik.

Tashxis ma'lumotlari, boshlang'ich ta'lim amaliyotida innovatsion faoliyat asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasini sezilarli oshirishga imkon berishi, bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini oshirishga imkon berishini tasdiqlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish muammosiga oid falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili natijasida, zamonaviy boshlang'ich ta'lim amaliyotida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga oid masala kam o'rganilganligi aniqlandi. Biroq, xorijiy va milliy psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayanch kompetensiyalar muvaffaqiyatli ta'lim olishning garovi hisoblanishi to'g'risidagi shubhasiz isbotlar mavjuddir. O'tkazilgan tahlil bizga muammoning asosiy tushunchasini ishlab chiqish, tadqiqot davomida tajriba-sinovda tekshirishni talab etuvchi farazning asosiy qoidalarini ifodalashga imkon berdi. Mazkur qoidalarga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish quyidagilar amalga oshirilganida yanada samarali amalga oshiriladi:

1) o'zaro bog'liq maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli-prosessual va natijaviy komponentlar majmuidan tashkil topgan innovatsion faoliyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish modeli ishlab chiqilsa va joriy etilsa;

2) loyihalangan modelni samarali amalga oshirishning pedagogik sharoitlari majmui aniqlansa.

Shu tariqa ifodalangan faraz qoidalari ularni tekshirish bo'yicha ishlari uning

barcha tashkil etuvchilarini amalga oshirishga imkon berishi tufayli haqli hisoblanadi: tizimli, shaxsiy-yoʻnaltirilgan va kompetentli, tushunchali-sinergetik yondashuvlarga asosan innovatsion faoliyatda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelini va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlarini loyihalash hamda boshlangʻich taʼlim amaliyotiga joriy etish; boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi koʻrsatkichlarining darajali dinamikasini tashxis qilish va baholash, olingan maʼlumotlarni matematik metodlar bilan tasdiqlash.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modelining asosiy komponentlari izchilligining nazariy asoslanganligi ularni loyihalashda va joriy etishda tizimli, shaxsiy-yoʻnaltirilgan va kompetentli, tushunchali-sinergetik yondashuvlarga tayanish bilan, shuningdek, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, taʼlimning hayot bilan bogʻliqligi, integrasiyasi prinsiplariga tayanish bilan taʼminlandi.

Mazkur nazariy-metodologik strategiyadan foydalanish bizga modelning va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlarining yaxlit umumiyligini, ularning boshlangʻich sinf oʻquvchisining xususiyatlari va imkoniyatlariga mosligini shakllantirishga imkon berdi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida farazning asosiy qoidalari innovatsion faoliyatda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlardan foydalanish bilan taʼlim olayotgan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining darajalarida ijobiy dinamikaning mavjudligi bilan tasdiqlandi, bu haqda quyidagicha batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

Ilgari surilgan faraz qoidalarini tekshirish uchun mezonlar ishlab chiqilib, ularga asosan boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining tashxisi oʻtkazildi.

Oʻtkazilgan tashxisning natijalari oʻrtacha 78% boshlangʻich sinf oʻquvchilari tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining past darajasida ekanliklarini

ko'rsatdi. Bizningcha, bu asosan past ko'rsatkichlar boshlang'ich ta'lim amaliyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishlarning yo'qligi bilan bog'liqdir.

Umumlashtiruvchi bosqichda tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholash kuzatish metodlaridan hamda matematik statistika metodlaridan foydalanish bilan amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv va amaliy faoliyatlarini kuzatish natijalari, mashg'ulotlar seriyadan so'ng o'quvchilar o'z bilishga oid va ijodiy faoliyatlarini mustaqil rejalashtira olganliklari, prognozlay boshlaganliklari, faollik namoyon eta boshlaganliklarini ko'rsatdi. Tayanch kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasini ko'rsatgan tajriba guruhlar o'quvchilari nazorat ishlarida eng yaxshi natijalarga erishdilar, chunki ular o'z faoliyatlarida "ishlashning to'g'ri vositalari"dan foydalandilar, o'z xulqlarini yaxshi boshqardilar, u yoki bu muammo qanchalik qoniqarli echilganligini to'g'ri baholay oldilar, ustuvor hayotiy vazifalarni to'g'ri aniqladilar. Tayanch kompetensiyalar shakllanganligining past darajasiga ega o'quvchilar biror-bir parchani o'qishni yakunlab ko'pincha nimani o'qiganliklarini anglamadilar ham, shuningdek, o'z faoliyatlarini rejalashtirish va maqsadlarni belgilashda qiyinlik his qildilar, ular tushunmagan ish qismini ifodalay olmaydilar, muhim bo'lganda diqqatlarini qiyinchilik bilan jamladilar, o'zlarini va o'z xulqlarini to'g'ri baholay olmadilar. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishning yakunlovchi bosqichida tajriba guruhi o'quvchilari yanada tashkiliy, mustaqil, muvaffaqiyatli, ijtimoiy moslashgan bo'lganliklari aniqlandi.

Loyihalangan modelning samaradorligini tekshirish davomida uchta kesim o'tkazildi – boshlang'ich kesim (tajriba-sinov ishlarining ta'kidlovchi bosqichida); oraliq kesim (tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichida) va yakuniy kesim (tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida).

Tajriba-sinov ishlarining ta'kidlovchi bosqichida o'tkazilgan boshlang'ich kesim natijalari dissertasiya ishining batafsil ifodalangan va umuman olganda,

boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasi pastligini ko'rsatdi. Ular nazorat va tajriba guruhlaridagi hech bir o'quvchi shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ mezonlarning yuqori darajasiga ega emasliklarini ko'rsatdi, mazkur guruhlarda tayanch kompetensiyalar shakllanganligi yuqori darajasiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarining yo'qligi bilan bog'liq.

Bu bizga loyihalangan model va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun an'anaviy ta'lim tizimidan ko'ra katta imkoniyatlarga ega ekanligi to'g'risidagi oraliq xulosaga kelish imkonini berdi. Mazkur modeldan foydalanish bilan ishlashda biz, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining oshishiga erishdik, bu esa, ularga o'qishda hamda hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga, axborot jamiyati sharoitlariga qulay moslashishlariga imkon berishi to'g'risidagi oraliq xulosaga keldik.

Bunday natijalarni olish bizga boshlang'ich ta'lim amaliyotida innovatsion faoliyat asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlaridan majmuaviy foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ishlarni samarali tashkil etish, yanada sifatli natijalarga erishish imkonini berishi to'g'risidagi oraliq xulosaga kelish imkonini berdi.

Pedagogik sharoitlarining samaradorligi darajasi to'g'risidagi yakuniy xulosalarni ifodalash uchun tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida model va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlari qo'llanilgan tajriba guruhida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasining nazorat tashhisi o'tkazildi. Shu tariqa, model va uni amalga oshirish pedagogik sharoitlaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarning tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ mezonlari rivojlanishining yuqori darajasiga erishishning samarali vositasi hisoblanishi to'g'risidagi taxminni qisman isbotlaydi. Tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichida ishlab chiqilgan metodikadan boshlang'ich ta'lim

amaliyotida foydalanish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hozirgi holati va boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligi darajasiga jamiyatning zamonaviy talablari o'rtasidagi ziddiyatlarni innovatsion faoliyatning pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish hisobiga qisman bartaraf etishga imkon beradi, bu esa, ta'lim sifatida ahamiyatli darajada oshirishga yordam beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli nafaqat o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishi, shuningdek, ularning axborot jamiyatida yanada muvaffaqiyatli moslashishlariga ko'maklashishi sababli samarali hisoblanadi.

Metodika o'qituvchiga ta'lim jarayonini mantiqan va izchil qurishga, o'quvchilarning imkoniyatlari, materialning xususiyatlari va shakl, metodlarning xarakteri o'rtasidagi muvofiqlikni o'rnatishiga imkon beradi va bu mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni nafaqat o'qituvchi uchun, balki o'quvchilar uchun ham engillashtiradi. Shu bilan birga, metodikadan foydalanish o'qituvchining ijodiy faoliyati uchun keng sharoit yaratib, unga o'quv mashg'ulotlarini qurish va mazmunli to'ldirishga individual yondashishga imkon beradi, bilish va o'z-o'zini bilishga ijobiy motivasiya va qiziqishni qo'zg'atadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish takomillashtirishning integrativ modelining isbotlangan samaradorligi tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichi davomida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida innovatsion faoliyatning imkoniyatidan qanday foydalanish mumkin, savoliga javob izlashdan iborat bo'lgan muammo hal etilganligi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi. Olingan natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tavsiyalarda ifodalandi, ularda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini pedagogik ta'minlash batafsil yoritilgan.

Bu pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash,

axborotni tahlil qilish, muammoni hal qilish, muloqotga kirishish, ijodkorlik kabi kompetensiyalar shakllanadi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali bo'lgan innovatsion texnologiyalar yoritiladi:

AKT texnologiyalari – bu o'quvchilarning ta'lim jarayonida kompyuter, planshet, interaktiv doska, multimedia resurslari orqali bilim olishini tashkil etadi. AKT vositalari o'quvchilar diqqatini jalb etadi, bilimlarni vizual tarzda chuqurlashtiradi, ta'limni shaxsga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Afzalliklari:

- O'quvchilarda axborot savodxonligi rivojlanadi.
- Mustaqil izlanish va tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.
- Matn, rasm, video orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Misollar:

- QR-kodlar orqali interaktiv topshiriqlar
- PowerPoint orqali mavzuni prezentatsiyalash
- Online o'yinlar (Quizizz, Wordwall, Kahoot)

2. Loyihaviy (proektiv) texnologiya

Loyihaviy texnologiya – bu o'quvchilarning real hayotiy muammolarni hal etish uchun loyiha tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, taqdim etish faoliyatini anglatadi. Bu texnologiya o'quvchilarda mas'uliyat, muloqot, rejalashtirish, hamkorlik kompetensiyalarini shakllantiradi.

Afzalliklari:

- Amaliy bilimlarni qo'llash imkonini beradi.
- Jamoaviy va ijodiy ishga o'rgatadi.
- O'zini baholash, o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Misollar:

- “Tabiatni asraymiz” mavzusida ekologik loyiha
- “Oila a'zolari haqida hikoya” – foto-loyiha
- Maktab kutubxonasini rivojlantirish bo'yicha g'oyalar loyihasi

3. Kognitiv texnologiya

Kognitiv texnologiyalar o'quvchilarning idrok, xotira, e'tibor, mantiqiy tafakkur va muammo yechish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiyalarda konstruktiv o'qitish, muammo asosida o'qitish, refleksiya usullari asosiy o'rin egallaydi.

Afzalliklari:

- O'quvchida o'z fikrini asoslash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi.
- Mavzularni chuqur anglashga yordam beradi.
- Metakognitiv kompetensiyalar rivojlanadi.

Misollar:

- "Nima uchun?" savoli asosidagi muammoli topshiriqlar
- "Fikr xaritasi" yordamida mavzularni tahlil qilish
- "Bilaman–bilmoqchiman–o'rgandim" jadvali orqali refleks

4. Klasterli texnologiya

Klasterli texnologiya – bu axborotni guruhlab tasniflash, g'oyalarni to'plash va ularni mantiqiy tizimlashtirish asosida o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyadir. Bu texnologiya ko'proq vizual grafikalar, diagrammalar, tushuncha xaritalari asosida amalga oshiriladi.

Afzalliklari:

- O'quvchilarda asosiy va ikkilamchi tushunchalarni ajratish ko'nikmasi shakllanadi.
- Mavzuni umumlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi.
- Tanqidiy fikrlashga yordam beradi.

Misollar:

- "Hayvonlar olami" mavzusida klaster tuzish (yovvoyi / uy hayvonlari)
- "O'qish" mavzusida tushunchalar xaritasi yaratish
- "Yil fasllari" bo'yicha mavzulararo bog'lanish klasteri

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu texnologiyalar orqali bolalarning qiziqishi, ijodkorligi, muloqotda faolligi oshadi va ularning kelajakdagi mustaqil o'qish va o'rganishga tayyorgarligi shakllanadi. darajalarini aniqlash va tavsiflashda biz ularni ajratishga umumiy talablarni hisobga oldik, ya'ni: darajalar ob'ektni shakllantirishning aniq farqlanuvchi ko'rsatkichlari sifatida xizmat qilishi kerak; bir darajadan boshqasiga o'tish ob'ektning rivojlanish darajasini aks ettirishi kerak, bunda har bir daraja ob'ektning rivojlanishi shart-sharoiti yoki natijasi bo'lib, avvalgi hamda keyingisi bilan o'zaro aloqador bo'lishi kerak (V.A.Belikov, T.E.Klimova va b.q.) [14].

XULOSA

«Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish» mavzusidagi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish muammosini o'rganish va ishlab chiqilganligi darajasini aniqlash mazkur muammo boshlang'ich ta'limning pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rsatdi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limda natijalarga erishishlariga yo'naltirilgan, shuningdek ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan dialog, hamkorliklariga asoslangan innovatsion yondashuvlarni qo'llashni ko'zda tutuvchi boshlang'ich ta'limdagi o'qitish strategiyalarining o'zgarishi bilan bog'liq. Innovatsion faoliyatning pedagogik imkoniyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga samarali ta'sirni ta'minlaydi va o'rganilayotgan jarayonning pedagogik ta'minoti hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish predmetli-shaxsiy, predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid va predmetli-kommunikativ masalalarni hamkorlikda echishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy, tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ mezonlarini oshirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida xizmat qiladi
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish mexanizmi ta'limning o'sib boruvchi talablari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur talablarni qondirish va murakkab masalalarni hal etish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik ziddiyatlarni echishga asoslanadi.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish jarayonini loyihalangan model asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Model boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan va o'zaro bog'liq komponentlardan (maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli-prosessual va mahsuldor) tashkil topgan murakkab, ko'p darajali, dinamik tizimni ifodalaydi.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish uch bosqichlarda oshirildi (tayyorlov, operasion va umumlashtiruvchi) va o'quv hamkorligi jarayonida yaxlit tizim sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar shakllanganligini ta'minlaydi.
6. Tajriba-sinov ishlari natijalari modelni ajratilgan pedagogik sharoitlar asosida amalga oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikda predmetli-tartibga soluvchi, predmetli-bilishga oid va predmetli-kommunikativ masalalarni echishlari jarayonidagi yaxlit tizim sifatidagi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga yordam berishini ko'rsatdi.

7. O'tkazilgan qiyosiy tahlili ilmiy izlanish vazifalari echilganligi, tadqiqot maqsadiga erishilganligini ko'rsatdi.

Mazkur xulosalarga tayangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ommalashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi maqsadida yaratilayotgan yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishning integrativ modelidan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637 son Qonuni.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'RQ-406-son qonuni. 2016 yil 14 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
4. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5313-son Farmoni. 2018 yil 25 yanvar.
5. Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5538-son Farmoni. 2018 yil 5 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. 2019 yil 29 aprel.
7. Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-son Qarori. 2017 yil 15 mart. Elektron resurs: <http://lex.uz/docs/3137130>. Murojaat sanasi: 07.07.2019.
8. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-son Qarori. 2017 yil 6 aprel. Elektron resurs: [file:///D:/%D0%9C%D0%BE%D0%B8%20%D0%B4%D0%BE%D0%BA%D1%83%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D1%82%D1%8B/Desktop/%D0%9E%D0%B9%D0%B3%D1%83%D0%BB/187%2006.04.2017%20\(2\).htm](file:///D:/%D0%9C%D0%BE%D0%B8%20%D0%B4%D0%BE%D0%BA%D1%83%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D1%82%D1%8B/Desktop/%D0%9E%D0%B9%D0%B3%D1%83%D0%BB/187%2006.04.2017%20(2).htm). Murojaat sanasi: 07.07.2019.

9. Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-son Qarori. 2018 yil 8 dekabr.

10. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

11. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

12. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

13. Blum A. The development of an Integrated Science Curriculum. Information Scheme Fur // Science Education 1981. – Vol. 3. – P. 1-15.

14. Dweeck C. (2007). Boosting achievement with messages that motivate // Education Canada. – № 47 (2). – R. 6-10.

15. Gettings M. (2016). Putting it all together: STEAM, PBL, Scientific Method and the Studio Habits of the Mind // Art Education. – № 69(4). – R.10-11.

16. Kohn A. (1993). Choices for children: Why and how to let students decide // Phi Delta Kappan. – № 75(1). – R. 8-20.

17. Radha Mohan. Teacher education // Asoke Industrial Technology Education For All. Aichi University of Education. – Japan, 2004.

18. Abduquddusov O.A. Integrativ yondoshuv – chuqur bilim, yaxshi fazilatlarni shakllantirish omili // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. – № 3. – B. 121-123.

19. Alekseev M.V. Klyuchevie kompetensii v pedagogicheskoy litera-ture // Pedagogicheskie texnologii. – 2006. – № 3. – S. 3-18.

20. Alipxanova F.N. Formirovanie kompetentnosti budushego pedagoga // Nauchnoe obozrenie ejekvartalniy sbornik statey. – № 46. – Maxachkala, 2009. – S. 65-67.

21. Andreev A.L. Kompetentnostnaya paradigma v obrazovanii: opitfilosofsko-metodologicheskogo analiza // Pedagogika. – 2005. – № 4. – S. 19-27.
22. Asmolov A.G. Psixologiya 21 veka i rojdenie variativnogo obrazovatel'nogo prostranstva Rossii // Mir psixologii. – 1999. – № 1. – S. 198-208.
23. Astvasaturov G. Texnologiya konstruirovaniya multimediy'nogo uroka // Uchitel. – 2004. – № 2. – S. 10-14.
24. Belikov V. A. Filosofiya obrazovaniya lichnosti: deyatelnostniy aspekt: monografiya. – M.: Gumanit. izd. sentr Vlados, 2004. – 357.
25. Blauberger I.V. Filosofskiy prinsip sistemnosti i sistemniy podxod // Voprosi filosofii. – 1987. – № 8. – S. 39-53.
26. Bolotov V. A. Kompetentnostnaya model: ot idei k obrazovatel'noy programme // Pedagogika. – 2003. – № 10. – S. 12.
27. Bolotov V.A., Novichkov V.B. Reforma pedagogicheskogo obrazovaniya // Pedagogika, 1992. – № 7-8.
28. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida // zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. – № 10. – B. 3-10.
29. Vvedenskiy V.N. Modelirovanie professionalnoy kompetentnosti pedagoga // Pedagogika. – 2003. – № 10. – S. 51-55.
30. Vinogradova N. F. Lichnostno-orientirovannoe obuchenie v nachalnoy shkole // Standarti i monitoring v obrazovanii. – 2001. – № 5. – S. 27-29.
31. Gaibova V.E. K opredeleniyu obshix uchebnix kompetentnostey starsheklassnikov // Innovasii v obrazovanii. – 2006. – № 5. – S. 28-39.
32. Galkina A.I. O razvitii Rossiyskogo fonda kompyuternix uchebnix programm // Pedagogicheskaya informatika. – 1994. – №1. – S. 57-59.
33. Guzeev V.V. Kompetensiya i kompetentnost: skolko ix u rossiyskogo shkolnika // Narodnoe obrazovanie. – 2004. – № 4. – S. 63-72.
34. Daxin A. Kompetensiya i kompetentnost: skolko ix u rossiyskogo shkolnika // Narodnoe obrazovanie. – 2004. – № 4. – S. 136-144.

35. Daxin A. Pedagogicheskoe modelirovanie: sushnost, effektivnost i neopredelennost // Narodnoe obrazovanie. – 2002. – № 2. – S. 55-60.
36. Jeltov P.V. Soderjanie i struktura ponyatiya “Bazovie professionalnie kompetensii spetsialista” // Vestnik FGOU VPO MGAU. - № 3. – 2010. – S. 138-142.
37. Zachesova E.V. Tradisionnie i innovatsionnie prinsipi oseni-va-ya dostijeniy uchashixsya // Shkolnie texnologii. – 2007. – № 2. – S. 167-172.
38. Zimnyaya I.A. Klyuchevie kompetentnosti kak rezultatивно-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii // Rektor vuza. – 2005. – № 6. – S. 13-29.
39. Klimenchenko D.V. Didakticheskie kompyuternie igri po matematike // Nachalnaya shkola. – 1989. – № 5. – S. 22-24.
40. Konsepsiya modernizatsii rossiyskogo obrazovaniya na period do 2010 goda // Nauka i shkola. – 2003. – № 1. – S. 3-19.
41. Krilova N.B. Pedagogicheskaya, psixologicheskaya i nravstvennaya podderjka kak prostranstvo lichnostnix izmeneniy rebenka i vzroslogo // Klassniy rukovoditel. – 2000. - № 3. – S. 100.
42. Lebedev O.E. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii // Shkolnie texnologii. – 2004. – № 5. – S. 3-12.
43. Lerner I.Ya. Teoriya sovremennogo prosessa obucheniya, ee znachenie dlya praktiki // Sovetskaya pedagogika. – 1999. – №1 1. – S. 10-16.
44. Lukyanova M. I. Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelya // Pedagogika. 2001. – № 10. – S. 56-61.
45. Lutseva E.A. Uchebnaya literatura dlya nachalnoy shkoli // Knijnoe delo. – 2006. – № 2. – S. 46-54.
46. Lvov L.V. Uchebno-professionalnaya kompetentnost: sushnost, soderjanie i osenka: monografiya. – Chelyabinsk: Chel. gos. agroinj. un-t, 2006. – 133 s.

47. Markova A.K. Psixologicheskiy analiz professionalnoy kompetentnosti uchitelya // Sovetskaya pedagogika. – 1990. – № 8. – S. 82-88.
48. Merkulov I.P. Evolyusioniruyut li nashi kognitivnie sposob-nosti? // Voprosi filologii. – 2005. – № 3. – S. 92-103.
49. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.
50. Ovcharova R.V. Psixologicheskaya ekspertiza professionalnoy kompetentnosti uchitelya // Obrazovanie i nauka. – 2001. – № 1 (7). – S. 83-87.
51. Polyakov S. Skolko ballov po shkale?...: otmetka kak zerkalo rossiyskogo obrazovaniya // Shkolnoe obozrenie. – 2003. – № 2. – S. 2-7.
52. Rubsov V.V., Davidov V.V. Osnovatel nauchnoy shkoli i direktor psixologicheskogo instituta // Voprosi psixologii. – 2005. – № 4. – S. 10-21.
53. Selevko G.K. Kompetentnosti i ix klassifikasiya // Narodnoe obrazovanie. – 2004. – № 4. – S. 138-145.
54. Piontkovskaya N.A. Kompyuter v nachalnoy shkole // Informatika i obrazovanie. - 2003. - N 9. - S. 94-96.
55. Prisyajnaya A.F. Prognozirovanie kak funktsiya pedagoga (ot budushego uchitelya do professionala). Monografiya. – Chelyabinsk: Obrazovanie, 2006. – 306 s.
56. Polyakov S. Skolko ballov po shkale?...: otmetka kak zerkalo rossiyskogo obrazovaniya // Shkolnoe obozrenie. – 2003. – № 2. – S. 2-7.
57. Rubsov V.V., Davidov V.V. Osnovatel nauchnoy shkoli i direktor psixologicheskogo instituta // Voprosi psixologii. – 2005. – № 4. – S. 10-21.
58. Selevko G.K. Kompetentnosti i ix klassifikasiya // Narodnoe obrazovanie. – 2004. – № 4. – S. 138-145.
59. Sergeeva T. Didakticheskie trebovaniya k kompyuternim obuchayushim programmam // Informatika i obrazovanie. – 1988. – № 1. – S. 68-73.

60. Sorokina T.M. Razvitie professionalnoy kompetensii budushego uchitelya sredstvami integrirovannogo uchebnogo soderjaniya // Nachalnaya shkola. – 2004. – № 2. – S. 110-114.
61. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimida informatikani uzviy o'qitishning fundamental asoslari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2005. – № 4.
62. Tarasova N.V. Mirovoy opet relizatsii kompetentnostnogo podxoda v professionalnaya obrazovanii // Srednee professionalnoe obrazovanie. – 2007. – 30-38 s.
63. Tatur Yu.G. Kompetentnost v strukture modeli kachestva podgotovki spetsialista // Visshee obrazovanie segodnya. – 2004. – № 3. – S. 20-26.
64. Trofimova E.I. O nekotorykh aspektax podgotovki uchitelya k professionalnoy deyatel'nosti v usloviyax informatsionnogo obshchestva // Pedagogicheskaya informatika. – 2004. – № 3. – S. 58-61.
65. Tyunikov Yu.S. Tipichnye oshibki v primenении pedagogicheskix metodov // Shkolnye tekhnologii. – 2004. – № 3. – S. 145-155.
66. Frolov Yu.V. Kompetentnostnaya model kak osnova osenki kachestva podgotovki spetsialista // Psixologiya obucheniya. – 2005. – № 6. – S. 45-47.
67. Xutorskoy A. Klyuchevye kompetensii: tekhnologiya konstruirovaniya // Narodnoe obrazovanie. – 2003. – № 5. – S. 55-61.
68. Xutorskoy A. Klyuchevye kompetensii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmi obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. – 2003. – № 2. – S. 58-64.
69. Sukerman G. A. Sistema Elkonina-Davidova kak resurs povi-sheniya kompetentnosti rossiyskix shkolnikov // Voprosi psixologii. – 2005. – № 4. – S. 84-95.
70. Chupanov A.X. Organizatsionno-pedagogicheskie trebovaniya k soderjaniyu obrazovatel'nykh programm // Dopolnitel'noe obrazovanie. – M.: Izd. «OOO Vityaz-M», 2005. – № 3.

71. Sherayzina R.M. Ambivalentniy podxod k modernizatsii pedagogicheskogo obrazovaniya v sovremennom universitetskom komplekse // Integratsiya obrazovaniya. – 2003. – № 3. – S. 16-20.

72. Shodmonova M.B. Ona tili va adabiyot darslarida nutq oʻstirish va tafakkurni uzluksiz rivojlantirish masalalari. Taʼlim mazmuni uzluksizligi // Uzluksiz taʼlim. – Toshkent, 2018. – № 4. – B. 3-7.

73. Qodirova K. Nutq oʻstirishni baholash uslubi // Sogʻlom avlod uchun. – Toshkent, 1998. – № 4-5. – B. 6-7.

Boshqa foydalanilgan adabiyotlar

74. Icheon declaration / Education 2030; Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all: Word Education Forum, 19-22 may 2015. – Incheon, Respublic of Korea, 2015. – P.6.

75. Hutmacher Walo. Key competencies for Europe // Report of the Symposium Berne. – Switzerland, 1996. 27-30 March, 1996.

76. Hutmacher Walo. Council for Cultural Cooperation (CDCC) a Secondary Education for Europe. – Strasburg, 1997.

77. Hetland L., Winner E., Veenema S., Sheridan K.M. (2013). Studio thinking 2: The real benefits of visual arts education (2nd.). – New York: Teachers College Press, 2013.

78. Qosimova K., Fuzailov S., Neʼmatova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – T.: Choʻlpon, 2018. – 144 b.

79. Gʻafforova T., Nurullayeva SH. Boshlangʻich sinflar ona tili darslarida didaktik oʻyinlar va mustaqil ishlar. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Qarshi: Nasaf, 2003. – 54 b.

80. Gʻafforova T., Shodmonov E., Gʻulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2018. – 112 b.

81. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. – T.: Taffakur, 2007. – 206 b.
82. Abdullaeva B.S. Akademik lisey o'quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis....ped.fan.nom.– Toshkent: TDPU,2002. – 146b.
83. Abdullaeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. – T.: O'qituvchi, 1968. – 114 b.
84. Abdullaeva Q., Shodmonova Sh., Yo'ldosheva Sh. Savod o'rgatish metodikasi. –T.: O'zbekiston, 1996. – 80 b.
85. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
86. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Dis. .. ped. fan. nom. – T.: Buxoro davlat universiteti, 2002. – 276 b.
87. Aleksashina I.Yu. Pedagogicheskaya ideya: zarojdenie, osmislenie, voploshenie. – SPb., 2000.
88. Alovuddinova N.G. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: Dis. ... ped. fan. nom. – T., 2007.
89. Amonashvili Sh.A. Gumanno-lichnostniy podxod k detyam. – M.: Izd-vo In-ta prakt. psixologii, 1998. – 539 s.
90. Ananev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – 3-e izd. – SPb.: Piter, 2002. – 288 s.
91. Aspekti modernizatsii rossiyskoy shkoli: nauch.-metod. reko-mendasii k shiroko masshtabnomu eksperimentu po obnovleniyu soderjaniya i strukturi obshego srednego obrazovaniya. – M.: GU VShE, 2002. – 164 s.
92. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.:O'qituvchi, 1984. –184 b.
